O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI

AMALIY MASALALARNI SONLI YECHISH

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI

«AMALIY MASALALARNI SONLI YECHISH»

modulining

O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A S I

Toshkent – 2024

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **f.-m.f.d., dotsent M.Xudoyberganov**

Taqrizchilar: **f.-m.f.d., prof. R.Aloev**

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil 20-yanvardagi № 4/2 -sonli bayonnomasi)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF–5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-sonli, 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ma’lumki mamlakatimiz mustaqilligi milliy ta’lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi.

Bu kursda tinglovchilar barcha fanlardan olgan bilimlarini qo‘llab fizik jarayonlar uchun matematik modellar yaratish, amaliy masalalar qo‘yish, yaratilgan matematik modellarning adekvatligini tekshirish, qo‘yilgash masala uchun yechish usullarini tanlash, chekli ayirmali sxemalar yaratish, sxemalarning turg‘unligini ta’minlash, hosil qilingan sonli tenglamalarni yechish usullarini tanlash, algoritmlar yaratish va dasturlar tuzish, dasturni sozlash, hisoblash eksperimentlarini o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va natijalarni jadval, grafik yoki animasion ko‘rinishlarda (vizual) taqdim etish kabi ko‘nikmalarni oladi.

Bu ko‘nikmalarni olish davomida tinglovchilar barcha matematik fanlarining bir birini to‘ldirishi, hayotiy masalalarni yechishda ularning qanchalik zarurligini to‘laroq tushunib yetadilar, bu masalalarni yechishda informasion texnologiyalarning rolini va yangi texnologiyalardan foydalanish ilmiy-texnika rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatishiga amin bo‘ladilar.

Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Amaliy matematika**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;

-o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“**Amaliy matematika**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“**Amaliy matematika**” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- oshkormas sxemalarning turg‘unligini;
- absolyut va shartli turg‘un ayirmali sxemalarni;
- Simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun Laks, Godunov, Rusanov ayirmali sxemalari va ularning turg‘unligini bilishi kerak.
- - iyerarxiya prinsipidai foydalanib, matematik modellar qurish;
- maltus va Ferxyulst-Pirl modellarini o‘zlashtirish;
- «Yirtqich-o‘lja» sistemasining o‘zaro munosabat modelini qo‘llash;
- ayirmali sxema turg‘unligini isbotlashning energetik usullaridan ulardan ***foydalana olishi kerak***;
- giperbolik sistemalar uchun chegaraviy shartlarga rioya etish;
- simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun aralash masalarni qo‘llash;
- to‘r tenglamalar sistemasini yechishda iterasion usullardan foydalanish;
- giperbolik tenglamalarni to‘r usuli bilan yechish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Amaliy matematika” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

1. ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

2. o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Amaliy masalalarni sonli yechish” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Tabiiy jarayonini matematik modellashtirish” moduli hamda mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar amaliy masalalarning matematik modellari, ularni yechish usullari va dasturiy ta’minotlar yaratish, hisoblash tajribalarini o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashgadoir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaiy mashg’ulot
1.	Simmetrik t- giperbolik sistemalarning asosiy tushunchalari.	6	2	4
2.	Ayirmali sxema turg‘unligini isbotlashning energetik usullari.	4	2	2
3.	Differensial tenglamalarni ayirmali tenglamalar bilan approksimasiya qilish.	4	2	2
4.	Oshkor va oshkor emas ayirmali sxemalar.	4	2	2
	Jami:	**18**	**8**	**10**

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Simmetrik t- giperbolik sistemalarning asosiy tushunchalari.

1.1. Giperbolik sistemalarning kanonik shakli.

1.2. Giperbolik sistemalar uchun chegaraviy shartlar.

1.3. Simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun aralash masala.

2-mavzu. Ayirmali sxema turg‘unligini isbotlashning energetik usullari.

2.1. Aprior baho. Nostatsionar gaz dinamikasi tenglamalari.

2.2. Statsionar Eyler tenglamalari. Saint-Venant tenglamalari.

2.3. Xususiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalani yechishning sonli usullari.

3-mavzu. Differensial tenglamalarni ayirmali tenglamalar bilan approksimatsiya qilish.

3.1. To‘r tenglamalar sistemasini yechish.

3.2. Chegaraviy shartlarni approksimatsiya etish.

3.3. To‘r tenglamalar sistemasini yechish.

4-mavzu. Oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar.

4.1. Oshkormas sxemalarning turg‘unligi.

4.2. Absolyut va shartli turg‘un ayirmali sxemalar.

4.3. Simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun Laks, Godunov, Rusanov ayirmali sxemalari va ularning turg‘unligi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Giperbolik sistemalarning kanonik shakli. Giperbolik sistemalar uchun chegaraviy shartlar. (4 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Ayirmali sxema turg‘unligini isbotlashning energetik usullari. Aprior baho. Nostatsionar gaz dinamikasi tenglamalari. Statsionar Eyler tenglamalari. Saint-Venant tenglamalari. Xususiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalani yechishning sonli usullari. (2 соат).

3-amaliy mashg‘ulot. Differensial tenglamalarni ayirmali tenglamalar bilan approksimatsiya qilish. To‘r tenglamalar sistemasini yechish. To‘r tenglamalar sistemasini yechishda iteratsion usullar. Giperbolik tenglamalarni to‘r usuli bilan yechish. (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar. Oshkormas sxemalarning turg‘unligi. Absolyut va shartli turg‘un ayirmali sxemalar. Simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun Laks, Godunov, Rusanov ayirmali sxemalari va ularning turg‘unligi. (2 soat).

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o‘z ichiga oladi: ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste’dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma’ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko‘rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish; xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e’lon qilish; ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish;

o‘quv adabiyotlari (darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.

Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o‘z aksini topadi.

Mustaqil malaka oshirish davrida pedagoglar asosiy ish joyi bo‘yicha pedagogik amaliyotdan o‘tadilar. Pedagogik amaliyot davrida pedagog asosiy ish joyi bo‘yicha kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilarini 2 ta darsini kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a’zolari ishtirokida talabalar guruhi uchun 1 ta ochiq dars o‘tkazadilar. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan darslar xulosalari kafedraning yig‘ilishida muhokama etiladi va tegishli kafedraning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, mustaqil malaka oshirish jarayonida tinglovchi qo‘yidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim:

− ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish, kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv rejalari va fanlar dasturlarini shakllantirish;

− o‘quv mashg‘ulotlarining har xil turlari (ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar)ni tashkillashtirish;

− talabalar o‘rtasida milliy mustaqillik g‘oyalari asosida ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta’lim jarayoni qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyati, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta’minlash, iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo‘llash;

− oliy ta’limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

mustaqil ta’lim olish yo‘li bilan o‘z bilimlarini takomillashtirish.

O‘QITISH SHAKLLARI

– Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

– ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

– davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

– bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. *KWHL:*
Know – nimalarni bilaman?
Want – nimani bilishni xohlayman?
How - qanday bilib olsam bo‘ladi?
Learn - nimani o‘rganib oldim?

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	***2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:*** -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	***4. Nimalarni bilib oldim:*** -

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mukin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

"SWOT-tahlil" metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif,kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavflar

2.1-rasm.

"VEER" metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Veer" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		**2-usul**		**3-usul**	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

"Insert" metodi

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
"V" – tanish ma'lumot.	
"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
"+" bu ma'lumot men uchun yangilik.	
"– " bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1mavzu: Simmetrik t- giperbolik sistemalarning asosiy tushunchalari

Reja

1.1. Giperbolik sistemalarning kanonik shakli.
1.2. Giperbolik sistemalar uchun chegaraviy shartlar.
1.3. Simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun aralash masala.
1.4. Giperbolik sistemalar uchun chegaraviy shartlar
1.5. Simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun aralash masala.

Matematik fizika kursidan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun qo‘yiladigan masalalarning xos namunalari bilan tanishmiz. Dastlab, eng sodda xususiy hosilali $\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglamaga to‘xtalamiz. Uning umumiy yechimini olish uchun oddiy differensial tenglamalar kursidan ma’lum bo‘lgan yechimni qurish usulini amalga oshiramiz. (x, t) tekisligida shunday to‘g‘ri chiziqlarni quramizki, ular bo‘ylab $\frac{dx}{dt}=1$

tenglik o‘rinli bo‘lsin (1- rasm). Bunday to‘g‘ri chiziqlarning (har birining) tenglamasi $x - t = const$ ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Ushbu to‘g‘ri chiziqlarning har biri uchun *const* qiymati o‘zgarmas bo‘ladi. O‘zgarmaslarning qiymatlari bu to‘g‘ri chiziqlarni nomerlab chiqadi desak bo‘ladi. $x–t=c$ tenglamadagi o‘zgarmas c soni, ushbu tenglama orqali beriladigan to‘g‘ri chiziqlar oilasiga mansub bo‘lgan to‘g‘ri chiziqning tartib raqami deb aytamiz.



1-rasm.



2 -rasm.

Biror $u(x, t)$ funksiyani qaraymiz va uning $\frac{du}{dt}$ hosilasini x-t=c to‘g‘ri chiziq bo‘ylab hisoblaymiz. Bunda $u(x, t)$ funksiyani differensiallanuvchi deb faraz qilishimiz zarurligi ayondir. «Differensiallanuvchi» so‘zining o‘rniga, «silliq» so‘zini ishlatamiz. Yana ham aniqroq bo‘lishi uchun «silliq» so‘zi qaralayotgan funksiya, biz o‘tkazmoqchi bo‘lgan tavtishlar yoki keltirib chiqarishlarning o‘rinli bo‘lishi uchun zarur bo‘ladigan tartibgacha hosilaga (hatto uzluksiz hosilaga) ega ekanligini anglatadi. Ushbu atamadan keyinchalik tez-tez foydalanamiz. Shunday qilib, $\frac{du}{dt}$ hosilani $\frac{dx}{dt}=1$ to‘g‘ri chiziq bo‘ylab hisoblaymiz: $\frac{du}{dt}=\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}\frac{dx}{dt}=\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}$

Ushbu hosila uchun keltirib chiqarilgan formulasidan ko‘rinib turibdiki, $\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglama $\frac{dx}{dt}=1$ to‘g‘ri chiziqlarning har biri bo‘ylab $u(x,\ t)$ funksiyaning o‘zgarmasligini anglatadi. Albatta, bu o‘zgarmas har xil to‘g‘ri chiziqlarda har xil bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, $u(x,\ t)$ funksiyaning $(x,\ t)$ nuqtadagi qiymati faqatgina nuqta yotuvchi to‘g‘ri chiziq tartib raqamiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni $u(x,t)=f(x-t)$ bo‘ladi (x-t ifodaning qiymati to‘g‘ri chiziqning tartib raqami deb ataladi).

u(x,t) funksiyaning $\frac{\partial u}{\partial t},\ \frac{\partial u}{\partial x}$ hosilalari mavjud bo‘lishi uchun $f(\xi)$ funksiya differensiallanuvchi bo‘lishi talab etiladi. Bunda $\frac{\partial u}{\partial t}=-f'(x-t),\ \frac{\partial u}{\partial x}=f'(x-t)$ bo‘ladi.

Bu yerdan esa ixtiyoriy silliq f funksiyasi $\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglamaning yechimini berishi yaqqol ko‘rinib turibdi. $u=f(x-t)$ formula ushbu tenglamaning umumiy yechimini beradi deb aytamiz.

Endi bu tenglama uchun qo‘yilishi mumkin bo‘lgan masalalarni muhokama qilishga o‘tamiz. Bunda masala deganda, yechimlar majmuasidan yagona yechimni ajratish uchun zarur bo‘ladigan qo‘shimcha shartlar majmuasini tushunamiz. (x,t) tekisligida x-t=const to‘g‘ri chiziqlar yo‘lakchasini qaraymiz. 2- rasmda x-t= *const* to‘g‘ri chiziqlarning har biri bilan faqat bir nuqtada kesishuvchi biror γ egri chiziqni tasvirladik. γ egri chiziq $x=\xi(s),\quad t=\tau(s)$ parametrik ko‘rinishda berilgan bo‘lsin va bu egri chiziq bo‘ylab $\varphi=\varphi(s)$ funksiyasi berilgan bo‘lsin. To‘g‘ri chiziqlarda $\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglamani qanoatlantiruvchi u=u(x,t) funksiyani shunday aniqlashimiz mumkinki, y γ egri chiziq nuqtalarida $\varphi=\varphi(s)$: $u\big|_{\gamma}=\varphi$ berilgan qiymatlarni qabul qilsin. Haqiqatdan ham, yechim *u=f(x-t)* ko‘rinishda bo‘lishi kerak. f funksiyaning ko‘rinishini quyidagi tarzda aniqlashimiz mumkin. Har bir x-t ifodaning qiymati uchun tenglamadan s kattalikni topamiz. Bu s nuqtasi x-t=*const* to‘g‘ri chiziq bilan egri chiziqning kesishish nuqtasiga mos keladi va shartimiz bo‘yicha yagona bo‘ladi. Bundan keyin $f(x-t)=\varphi(s)$ deb olamiz. Agar $\xi(s),\ \ \tau(s),\ \ \varphi(s)$ silliq funksiyalar bo‘lsa ($\xi'(s)-\tau'(s)\neq 0$), u holda biz ko‘rgan *f(x-t)* funksiya ham silliq bo‘lishini va demak u o‘rganilayotgan tenglamaning yechimi bo‘lishini isbotlash mumkin.



3- rasm.



4 - rasm.

Hozir keltiriladigan ko‘rgazmali tasavvurlar, matematik fizika tenglamalarining muhim bir sinfining nazariyasidagi asosiy dalillarni tezroq va soddaroq bayon etish uchun zarur.

Dastlabki masalaga qaytamiz. γ egri chiziq sifatida 3, 4 rasmda ko‘rsatilganidek, x o‘qida yotuvchi kesmani yoki t o‘qida yotuvchi biror kesmani tanlashimiz mumkin. Hattoki γ egri chiziq sifatida bir-biri bilan tutashgan x o‘qi va t o‘qida yotuvchi kesmalarni (5- rasm) ham olish mumkin. Bunda shuni ta’kidlash lozimki, AO va OB kesmada berilgan $\varphi(s)$ funksiya qismlari, x=t to‘g‘ri chiziqda differensiallanuvchi va O nuqtadan o‘tuvchi f(x-t) funksiyani aniqlab berishini ta’minlashimiz zarur.



5-rasm.



6- rasm.

Savol. Buni ta’minlash uchun, funksiyasining elementlari AO va OV chiziqlar ustida qanday shartlarni bajarishi lozim?

6 rasmda tasvirlangan *x,t* o‘qlarining kesmalarini masalaning qo‘yilishidagi γ egri chiziq sifatida ishlatish mumkin emas, chunki AO kesma bilan kesishuvchi *x-t=const* to‘g‘ri chiziqlar, BO kesma bilan ham kesishadi. Har bir *x-t=const* to‘g‘ri chizig‘i buylab *u*(*x*,*t*) funksiyaning qiymati o‘zgarmaydi, natijada φ(s) funksiyaning qiymatini OA kesmada ixtiyoriy berish mumkin emas. φ(s) funksiyaning OA kesmadagi qiymatlari, uning qiymatlarini VO kesmada berilgandan so‘ng, bir

qiymatli aniqlanadi.

Endi yechimning yagonaligi haqidagi savolga to‘xtalamiz. Faraz qilamiz $\varphi(s)$ funksiyaning qiymati x o‘qining AB kesmasida berilgan bo‘lsin. Bu holatda yechim AV kesma bilan kesuvchi *x-t= const* to‘g‘ri chiziqlar hosil qilgan yo‘lakcha ichida bir qiymatli aniqlanadi. Agar $\varphi(s)$ funksiyani katta *ab* kesmaga silliq ravishda davom ettirsak
(7 rasm), u holda biz chegaralari shtrixlar bilan belgilangan kengroq yo‘lakchada yechimni qurib bilamiz. $\varphi(s)$ funksiyani bunday davom ettirish usullari ko‘p bo‘lganligi sababli, yechim ham AB kesmada, $\varphi(s)$ funksiyani berish bilan kengroq yo‘lakchada bir qiymatli aniqlanmaydi.

AB bilan kesishuvchi *x-t=const* to‘g‘ri chiziqlar yo‘lakchasi yagonalik sohasi deyiladi. Yana bir holatni o‘rganib chiqamiz. γ egri chiziq sifatida *x-t=const* to‘g‘ri chiziqlarning birida yotuvchi AB kesmani olamiz. Masalan AB kesmasi *x-t=0* to‘g‘ri chizig‘i ustida yotsin (8 rasm).



7-rasm.



8-rasm.

Bu holda $u|_\gamma = \varphi(s)$ shartdagi $\varphi(s)$ funksiyani ixtiyoriy berish mumkin emas, chunki kesma bo‘ylab hosila $\frac{du}{dt} = 0$, bu yerdan esa $\varphi(s)$ funksiyaning o‘zgarmasligi kelib chiqadi. Aks xolda

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} + \frac{\partial u}{\partial x} = 0, \\ u|_\gamma = \varphi(s) \end{cases}$$

masala hech qanday yechimga ega bo‘lmaydi. Agar biz $\varphi(s) = \varphi_0 = const$ deb tanlasak, u holda masala $u = f(x-t)$ yechimga ega bo‘ladi, bu yerda $f(\xi)$ funksiya faqat $f(0)=\varphi_0$ shartga bo‘ysunadi, qolgan to‘g‘ri chiziqlar ustida ixtiyoriy bo‘ladi. Bu holda yagonalik sohasi bitta *x-t*=0 to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘ladi.

Biz, qo‘shimcha shartlarni berish mumkin bo‘lgan egri chiziqlarni ixtiyoriy tanlash mumkin emasligini ko‘rdik. *x-t=const* to‘g‘ri chiziqlarga nisbatan egri chiziqning joylashishini e’tiborga olishimiz zarur. Bu to‘g‘ri chiziqlar $\frac{\partial u}{\partial t} + \frac{\partial u}{\partial x} = 0$ tenglamaning *xarakteristikalari* deb ataladi. Hozircha biz xarakteristika muhim tushunchasiga biror umumiy ta’rif bermaymiz. Bunday ta’rif keyingi paragrafda beriladi.

Keyinchalik, odatda γ egri chiziq sifatida x o‘qi kesmasini tanlab va faqat $t \geq 0$ vaqt uchun bu kesmaga tayanadigan xarakteristik yo‘lakchada $\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglama yechimi izlanadi. Bu holda $u|_{\gamma}=\varphi(s)$ qo‘shimcha shartni boshlang‘ich shart yoki boshlang‘ich berilganlar (qiymatlar) deb aytiladi. $\frac{\partial u}{\partial t}+\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglama uchun barcha aytilganlarni $\frac{\partial u}{\partial t}+a\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglama uchun ham deyarli so‘zma-so‘z takrorlanishi mumkinligini qayd qilamiz. Ushbu holatda *x-t=const* to‘g‘ri chiziqlar rolini $\frac{\partial u}{\partial t}+a\frac{\partial u}{\partial x}=0$ tenglamaning xarakteristikalari deb ataladigan *x-at= const* to‘g‘ri chiziqlar o‘ynagani sababli uning umumiy yechimi $u=f(x-at)$ ko‘rinishda yoziladi.

Endi ikkita bog‘liqmas (erkin) tenglamalardan iborat

$$\begin{cases} \frac{\partial u_1}{\partial t}+a_1\frac{\partial u_1}{\partial x}=0 \\ \frac{\partial u_2}{\partial t}+a_2\frac{\partial u_2}{\partial x}=0 \end{cases}$$

sistemaning murakkabroq misolini tavtish qilamiz.

Sistema birinchi tenglamasining yechimi $u_1=f(x-a_1t)$, ikkinchisining yechimi $u_2=g(x-a_2t)$ ko‘rinishda bo‘ladi. Sistemamiz uchun x o‘qkishning AB kesmasida (ya’ni t=0 da) boshlang‘ich qiymatlarni beramiz. AB kesmani avvalgidek γ bilan belgilaymiz. $u_1|_{\gamma}=\varphi(x),\ \ u_2|_{\gamma}=\psi(x)$.

9- rasmda $u_1(x,t)$ va $u_2(x,t)$ qiymatlarini aniqlab bo‘ladigan (x,t) tekislikning $(t \geq 0)$ yarim tekisligidagi yarim yo‘lakchalari tasvirlangan. Ko‘rgazmali bo‘lishi uchun biz a_1, a_2 koeffitsiyentlarni turli $(a_1>0,\ a_2<0)$ иshoralar bilan oldik.

Sistema yechimlari haqida faqat AB kesmaga tayanuvchi ikkala xarakteristik yo‘lakchaning kesishidan (to‘plam nazariyasi ma’nosida) iborat ABC uchburchak ichida gapirish ma’noga ega, chunki faqat ushbu uchburchak ichida yechim bir qiymatli aniqlanadi.



9-rasm.

Tabiiyki sistemaning $x-a_1t=const$, $x\text{-}a_2t=const$ xarakteristikalari bilan chegaralangan ABC uchburchak xarakteristik uchburchak deb ataladi. Hozir biz ko‘rgan sistema misoli g‘ayri tabiiy ko‘rinishi mumkin. Shuning uchun birinchi qarashda murakkab ko‘ringan, yuqorida o‘rganilgan holga keltirilishi mumkin bo‘lgan sistemani namoyish qilamiz:

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u}{\partial t} + \dfrac{1}{\rho_0} \dfrac{\partial p}{\partial x} = 0 \\ \dfrac{\partial p}{\partial t} + \rho_0 c_0^2 \dfrac{\partial u}{\partial x} = 0 \end{cases} \qquad (1)$$

Bu sistema tinchlangan muhitda yassi tovush to‘lqinlarini (kichik qo‘zg‘alishlarning) tarqalishini tavsiflaydi. Bu yerda u – qo‘zg‘atilgan muhit tezligi, p – ushbu muhit bosimi. O‘zgarmas ρ_0, c_0 tinchlangan muhit xossalari bilan bog‘liq, ρ_0- uning zichligi, c_0 esa siqilishni xarakterlovchi o‘zgarmas. (1) tenglamalar sistemasi akustika tenglamalar sistemasi deb ham ataladi. Bu tenglamalarning keltirib chiqarilishini fizika kursida yoki tutash muhitlar mexanikasidan topish mumkin. Biz hozir tovush to‘lqinlarini tavsiflovchi sistemani sodda almashtirish va o‘zgaruvchilarni almashtirish bilan yuqorida keltirilgan oddiy ko‘rinishdagi sistemaga keltirish mumkinligini ko‘rsatamiz. Shu maqsadda, sistemaning ikkinchi tenglamasini $\dfrac{1}{\rho_0 c_0^2}$ ga ko‘paytiramiz. Hosil qilingan $\dfrac{\partial \frac{p}{\rho_0 c_0}}{\partial t} + c_0 \dfrac{\partial u}{\partial x} = 0$ tenglamani, birinchi $\dfrac{\partial u}{\partial t} + \dfrac{1}{\rho_0} \dfrac{\partial p}{\partial x} = 0$ tenglamaga qo‘shamiz. Natijada $\dfrac{\partial (u + \frac{p}{\rho_0 c_0})}{\partial t} + c_0 \dfrac{\partial (u + \frac{p}{\rho_0 c_0})}{\partial x} = 0$ tenglamani hosil qilamiz. Agar yuqoridagi amallarda qo‘shishni ayirish bilan almashtirsak, u holda shunga o‘xshash boshqa tenglama hosil bo‘ladi:

$$\frac{\partial (u - \frac{p}{\rho_0 c_0})}{\partial t} - c_0 \frac{\partial (u - \frac{p}{\rho_0 c_0})}{\partial x} = 0$$

Endi

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u_1}{\partial t} + c_0 \dfrac{\partial u_1}{\partial x} = 0 \\ \dfrac{\partial u_2}{\partial t} - c_0 \dfrac{\partial u_2}{\partial x} = 0 \end{cases}$$

sistema ko‘rinishiga kelish uchun,

$$u + \frac{p}{\rho_0 c_0} = u_1, \; u - \frac{p}{\rho_0 c_0} = u_2$$

belgilashlarni kiritish kifoya.

Ma’lumki, bunday sistemaning umumiy yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$u_1 = f(x - c_0 t), \quad u_2 = g(x + c_0 t).$$

u_1, u_2 ni u, p orqali ifodalab

$$u+\frac{p}{\rho_0 c_0}=f(x-c_0t),\quad u-\frac{p}{\rho_0 c_0}=g(x+c_0t)$$

yoki

$$u=\frac{f(x-c_0t)+g(x+c_0t)}{2},\quad p=\rho_0 c_0\frac{f(x-c_0t)-g(x+c_0t)}{2}$$

ifodalarni olamiz. Bu formulalar tovush tarqalishi tenglamalarining umumiy yechimini namoyish qiladi.

Har biri faqatgina bitta erkli funksiyaga bog‘liq bo‘lgan bir nechta birinchi tartibli erkli tenglamalar sistemasiga keltirish mumkin bulgan sistemalar giperbolik tenglamalar deb ataluvchi sinfga tegishli bo‘ladi. Kelgusida bunday sistemalar mukammalroq o‘rganiladi. Faraz qilamiz $t=0$ boshlang‘ich vaqtda va biror $x_1<x<x_2$ intervalda p bosimning taqsimoti va u tezlik ma’lum bo‘lsin. Yuqorida ko‘rganimizdek, ushbu boshlang‘ich berilganlar yechimni o‘zining asosi bilan (x_1, x_2) intervalga tayanuvchi xarakteristik uchburchakda bir qiymatli tarzda aniqlaydi. Bu uchburchak $t>0$, $x\text{-}c_0t>x_1$, $x_0+c_0t<x_2$ tengsizliklar bilan aniqlanadi.

$u\pm\frac{p}{\rho_0 c_0}$ kattaliklar nemis matematigi Riman nomi bilan riman invariantlari deb ataladi. $u+\frac{p}{\rho_0 c_0}=f(x-c_0t)$ formula ushbu riman invarianti shaklini o‘zgartirmasdan c_0 tezlik bilan o‘ng tomonga ko‘chirishini ko‘rsatadi. Ushbu c_0 kattalikni qo‘zg‘atilgan tovush to‘lg‘inlari tarqalishining tezligi yoki qisqacha tovush tezligi deb atalishiga asos bo‘ladi. Shunga o‘xshash $u-\frac{p}{\rho_0 c_0}=g(x+c_0t)$ formula boshqa riman invariantini shaklini o‘zgartirmasdan c_0 tezlik bilan chap tomonga qarab ko‘chirishni ko‘rsatadi.

f, g funksiyalarni shunday tanlaymizki, yuqordagi formulalar yordamida olingan yechimlar $x_1\le x\le x_2$ kesmada berilgan $u(x,0)=u|_{t=0}=\varphi(x)$, $p(x,0)=p|_{t=0}=\psi(x)$ boshlang‘ich qiymatlarni qanoatlantirsin. Shu maqsadda

$$\varphi(x)=\frac{f(x)+g(x)}{2},\quad \frac{\psi(x)}{\rho_0 c_0}=\frac{f(x)-g(x)}{2}$$

deb olish yetarlidir. Bu yerdan

$$f(z)=\varphi(z)+\frac{\psi(z)}{\rho_0 c_0},\quad g(z)=\varphi(z)-\frac{\psi(z)}{\rho_0 c_0},$$

$$\begin{cases} u+\dfrac{p}{\rho_0 c_0}=\varphi(x-c_0t)+\dfrac{\psi(x-c_0t)}{\rho_0 c_0} \\ u-\dfrac{p}{\rho_0 c_0}=\varphi(x+c_0t)-\dfrac{\psi(x+c_0t)}{\rho_0 c_0} \end{cases}$$

Endi akustika tenglamasi uchun Koshi masalasi deb ataluvchi masalaning yechimini beruvchi formulani olish qiyin emas:

$$u=\frac{\varphi(x-c_0t)+\varphi(x+c_0t)}{2}+\frac{\psi(x-c_0t)-\psi(x+c_0t)}{2\rho_0c_0}$$

$$p=\frac{\psi(x-c_0t)+\psi(x+c_0t)}{2}+\rho_0c_0\frac{\varphi(x-c_0t)-\varphi(x+c_0t)}{2}$$

(1) sistema uchun Koshi masalasi quyidagicha qo‘yiladi: (1) sistemaning berilgan $u|_{t=0}=\varphi(x),\quad p|_{t=0}=\psi(x)$ boshlang‘ich shartlarini qanoatlantiruvchi yechimini topish talab qilinadi. Yuqorida keltirilgan mulohazalar Koshi masalasi yechimining xarakteristik uchburchak ichida mavjudligi, hamda yagonaligini isbotlashga imkon beradi. Ko‘p hollarda birinchi tartibli

$$\begin{cases}\dfrac{\partial u}{\partial t}+\dfrac{1}{\rho_0}\dfrac{\partial p}{\partial x}=0\\[2mm]\dfrac{\partial p}{\partial t}+\rho_0c_0^2\dfrac{\partial u}{\partial x}=0\end{cases}$$

sistema o‘rniga *p* bosim uchun sistemaning birinchi tenglamasini *x* bo‘yicha, ikkinchisini *t* bo‘yicha differensiallab, so‘ngra ulardan $\frac{\partial^2 u}{\partial x\partial t}$ **aralash hosilani yo‘qotish bilan hosil bo‘ladigan ikkinchi tartibli** $\frac{\partial^2 p}{\partial t^2}-c_0^2\frac{\partial^2 p}{\partial x^2}=0$ **tenglama qaraladi.**

Bu ikkinchi tartibli tenglama odatda torning kichik tebranishlari tenglamasi deb ataladi. Tor, tortilgan ip tebranishini tavsiflovchi tenglama ham shunday ko‘rinishda bo‘ladi. Aynan tor tebranishini tadqiq qilish jarayonida u dastlab matematik tadqiqotlarda paydo bo‘ldi.

Bu tenglama quyidagi ko‘rinishda yozilishi mumkin.

$$\left(\frac{\partial}{\partial t}-c_0\frac{\partial}{\partial x}\right)\left(\frac{\partial}{\partial t}+c_0\frac{\partial}{\partial x}\right)p=0$$

$\frac{\partial p}{\partial t}+c_0\frac{\partial p}{\partial x}$ ifodani q orkali ifodalab, bu tenglamaga ekvivalent birinchi tartibli sistemaga kelamiz.

$$\begin{cases}\dfrac{\partial p}{\partial t}+c_0\dfrac{\partial p}{\partial x}=q\\[2mm]\dfrac{\partial q}{\partial t}-c_0\dfrac{\partial q}{\partial x}=0\end{cases}$$

Sistema tenglamalaridan ikkinchisi umumiy yechimga ega. (Keyinchalik ixtiyoriy silliq va G funksiyaning biror boshqa g funksiyaning hosilasi orqali belgilangan ikkinchi ko‘rinishi bizga qulay bo‘ladi) p uchun $\frac{\partial p}{\partial t}+c_0\frac{\partial p}{\partial x}=2c_0g'(x+c_0t)$ tenglamasini uning umumiy yechimini

$p-g(x+c_0t)=f(x-c_0t),$ $\qquad p(x,t)=f(x\text{-}c_0t)+g(x+c_0t)$ ko‘rinishda yozish imkonini beruvchi

$$\frac{\partial[p-g(x+c_0t)]}{\partial t}+c_0\frac{\partial[p-g(x+c_0t)]}{\partial x}=0$$

ko‘rinishda yozish mumkin. Umumiy yechim uchun yozilgan formulani birinchi bo‘lib (1747yil) Dalamber topgan. 1748 yilda Eyler *f, g* funksiyalarni $p(x,t)$, $p_t(x,t)$ funksiyalarning $t=0$ dagi

$$p(x,0)=\varphi(x),\ \mathrm{p_t}(x,0)=\psi(x) \qquad (2)$$

qiymatlari orqali ifodaladi. Bu uni Dalamber formulasi deb ham ataladigan (Dalamber uni qonuniy emas deb hisoblashiga qaramasdan)

$$p(x,t)=\frac{\varphi(x+c_0t)+\varphi(x-c_0t)}{2}+\frac{1}{2c_0}\int_{x-c_0t}^{x+c_0t}\psi(\xi)d\xi$$

formulaga olib keldi.

Biroq atama qabul qilindi va biz uni qo‘llab quvvatladik. Bu formula

$$\frac{\partial^2 p}{\partial t^2}-c^2{}_0\frac{\partial^2 p}{\partial x^2}=0$$

tenglama uchun Koshi masalasining yechimini beradi. Ushbu ikkinchi tartibli tenglama uchun Koshi masalasi quyidagicha qo‘yiladi: (2) boshlang‘ich qiymatlarni qanoatlantiruvchi yechimlarni topish talab etiladi. Koshi masalasi yechimi formulasini hosil qilish uchun, umumiy yechimning $p(x,t)=f(x-c_0t)+g(x+c_0t)$ ko‘rinishida *f, g* funksiyalarni

$$f(x)+g(x)=p(x,0)=\varphi(x)$$
$$-cf'(x)+c_0g'(x)=p_t(x,0)=\psi(x)$$

shartlardan aniqlashimiz kerak. Birinchi tenglikni differensiallab, ikkinchisi bilan birgalikda yechib funksiyalarning qiymatlarini topamiz:

$$f'(x)=\frac{1}{2}\varphi^1(x)-\frac{1}{2c_0}\psi(x),\ \ g'(x)=\frac{1}{2}\varphi^1(x)+\frac{1}{2c_0}\psi(x).$$

Bu tengliklarni integrallaymiz:

$$f(x)=\frac{1}{2}\varphi(x)-\frac{1}{2c_0}\int_{x_0}^{x}\psi(\xi)d\xi+a,\ \ g(x)=\frac{1}{2}\varphi(x)+\frac{1}{2c_0}\int_{x_0}^{x}\psi(\xi)d\xi+b$$

Bu yerda x_0 – boshlang‘ich qiymatlar beriladigan sohadagi ixtiyoriy nuqta, *a* ва *b* o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarmaslar. $f(x)+g(x)=\varphi(x)$ tenglikdan *b=-a* tenglikni hosil qilamiz. Demak:

$$p(x,t)=f(x-c_0t)+g(x+c_0t)=\left[\frac{\varphi(x-c_0t)}{2}-\frac{1}{2c_0}\int_{x_0}^{x-c_0t}\varphi(\xi)d\xi+a\right]+$$

$$+\left[\frac{\varphi(x+c_0t}{2}+\frac{1}{2c_0}\int_{x_0}^{x+c_0t}\varphi(\xi)d\xi-a\right]=\frac{\varphi(x+c_0t)+\varphi(x-c_0t)}{2}+\frac{1}{2c_0}\int_{x-c_0t}^{x+c_0t}\Psi(\xi)d\xi$$

Shunday qilib

Koshi masalasi yechimi formulasi isbotlandi. (1) sistema uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligini yechimning oshkor formulalarini keltirib chiqarish bilan ko‘rsatgan edik. Biroq odatda yagonalik teoremasini isbotlash uchun energiyaning saqlanish qonuni bilan aloqador tushunchalardan foydalaniladi. Ushbu usul yordamida yagonalik teoremasi isbotini keltiramiz.

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u}{\partial t} + \dfrac{1}{\rho_0}\dfrac{\partial p}{\partial x} = 0 \\ \dfrac{\partial p}{\partial t} + \rho_0 c_0^2 \dfrac{\partial u}{\partial x} = 0 \end{cases}$$

tenglamalar sistemasidan birinchisini $\rho_0 u$ ko‘paytuvchiga, ikkinchisini $\dfrac{p}{\rho_0 c_0^2}$ ko‘paytuvchiga ko‘paytiramiz. Natijalarni qo‘shib

$$\frac{\partial\left[\rho_0\left(\dfrac{u^2}{2} + \dfrac{p^2}{2\rho_0^2 c_0^2}\right)\right]}{\partial t} + \frac{\partial pu}{\partial x} = 0$$

ayniyatga kelamiz. Bu ayniyatdan ixtiyoriy bo‘lakli silliq yopiq kontur bo‘yicha

$$\oint -\left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2}\right)dx + pudt = 0$$





ekanligi kelib chikadi.

10-rasm. 11-rasm.

Bu integral tenglik tovush tarqalishi tenglamalarining silliq yechimlari uchun energiyaning saqlanish qonuni deyiladi. «Energiyaning saqlanish qonuni» atamasini tushuntirish uchun 10- rasmda tasvirlangan AVSDA to‘g‘ri burchakli kontur integral ayniyatni qo‘llaymiz va quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\int_D^C \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2}\right)dx = \int_A^B \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2}\right)dx + \int_A^D pudt - \int_B^C pudt.$$

Bu tenglikdagi $\int_A^B \rho_0 \frac{u^2}{2} dx$ t_0 - boshlang‘ich vaqtda $x_1<x<x_2$ intervalda joylashgan gazning kinetik energiyasini tasvirlaydi; $\int_A^B \frac{\rho^2}{2\rho_0 c_0^2} dx$ - ushbu gazning siqilish potensial energiyasi.

$\int_C^D \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx$ integral t_1 vaqtdagi to‘liq energiya.

$\int_A^D pudt - \int_B^C pudt$ ayirma (t_0, t_1) vaqt intervalida gaz ustida bajargan ishni namoyish qiladi. Bu mulohazalardan keyin integral ayniyatni energiyaning saqlanish qonuni (yoki energiya integrali) deb atalishi tushunarli bo‘lishi kerak. Endi energiyaning saqlanish qonunidan yagonalik teoremasini isbotlashda qanday foydalanish mumkinligini ko‘rsatamiz. $t = 0$ da x o‘qining AB $(x_1 \le x \le x_2)$ kesmasida $u|_{t=0} = \varphi(x), \quad p|_{t=0} = \psi(x)$ boshlang‘ich qiymatlarni beramiz. Yechimning yagonaligini chap va o‘ng tomondan $AC \quad (x - c_0 t = x_1)$ va $BC \quad (x + c_0 t = x_2)$ xarakteristikalar bilan chegaralangan, AVS xarakteristik uchburchak ichida (11-rasm) isbotlaymiz.

Bu uchburchakni $t=t_1$ to‘g‘ri chiziqning PQ kesmasi bilan kesamiz, so‘ngra ABQP konturga energiya saqlanish qonunining integral shaklini qo‘llaymiz:

$$\int_P^Q \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx = \int_A^B \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx -$$

$$- \int_A^P \left[(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \quad) dx - pudt \right] + \int_B^Q \left[\left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx - pudt \right].$$

$\int_A^p \left[\left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx - pudt \right]$ integralni batafsilroq qaraymiz.

Bu integral $x - c_0 t = const$ xarakteristika bo‘ylab olingani uchun $dx = c_0 dt,$ natijada uni yana quyidagicha yozish mumkin:

$$\int_A^P \left[\left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) c_0 dt - \rho udt \right] = \frac{\rho_0 c_0}{2} \int_A^p \left(u - \frac{p}{\rho_0 c_0} \right)^2 dt \ge 0$$

Biz xarakteristikaning AP kesmasi bo‘yicha integralning nomanfiyligini ko‘rsatdik. Shunga o‘xshash BQ bo‘ylab $dx=-c_0dt$ tenglikdan foydalanib,

$$\int_B^Q \left[\left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx - pudt \right] = -\frac{\rho_0 c_0}{2} \int_B^Q \left(u + \frac{p}{\rho_0 c_0} \right)^2 dt \le 0$$

ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Isbotlangan tengsizliklardan va energiya saqlanish qonunining integral ayniyatidan

$$\int_P^Q \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx \le \int_A^B \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx$$

kelib chiqadi. Agar t=0 da, r=0, u=0 ga ega bo‘lsak, u holda

$$\int_P^Q \left(\rho_0 \frac{u^2}{2} + \frac{p^2}{2\rho_0 c_0^2} \right) dx \le 0$$

bo‘ladi. Natijada PQ da u, p miqdorlar ham nolga teng bo‘lishi kerak. Bu yerdan xarakteristik uchburchak asosida berilgan nol qiymatli boshlang‘ich qiymatlar, zaruriy tarzda uchburchakning ichidagi hamma nuqtalarda $u = 0, \quad p = 0$ ekanligi kelib chiqadi.

Endi yagonalik teoremasini isbotlash oson bo‘ladi. Agar u_1, p_1 va u_2, p_2 lar AV kesmada bir xil boshlang‘ich qiymatlarni qanoatlantiruvchi chiziqli sistema yechimi bo‘lsa, u holda ularning ayirmasi u_1-u_2, p_1- p_2 ham shu sistemaning nolga teng bo‘lgan boshlang‘ich qiymatlarini qanoatlantiruvchi yechimi bo‘ladi. Yuqorida isbotlanganligiga asosan butun xarakteristik uchburchak ichida u_1-u_2≡0, p_1- p_2≡0 bo‘ladi. Yagonalik teoremasi isbotlandi.

Ba’zida akustika tenglamalari uchun Koshi masalasini yechish emas, balki bu yechim sohaning x=0, x=l chegaralarida biror qo‘shimcha shartlarni qanoatlantirishini talab qiluvchi $u(x,0) = \varphi(x), \quad p(x,0) = \psi(x), \quad 0 \le x \le l$ boshlang‘ich qiymatlar bo‘yicha $0 \le x \le l, \quad t \ge 0$ sohada yechimni izlashdan iborat aralash masala deb ataluvchi masalani yechishga to‘g‘ri keladi. Masalan bu qo‘shimcha shartlar $u(0,t)=0$, $u(l,t)=0$ tengliklardan iboratligini talab qilish mumkin. Bunday qo‘yilgan masala $x=0$, $x=l$ mahkamlangan devorlar o‘rtasida gaz tebranishini o‘rganish bilan bog‘liq. Bu yerda qo‘yilgan aralash masalaning yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi kerak:

$$u = \frac{f(x - c_0 t) + g(x + c_0 t)}{2}, \quad p = \rho_0 c_0 \frac{f(x - c_0 t) - g(x + c_0 t)}{2}$$

bu yerda f, g funksiyalar

$$f(z) = \varphi(z) + \frac{\psi(z)}{\rho_0 c_0}, \quad g(z) = \varphi(z) - \frac{\psi(z)}{\rho_0 c_0}$$

formulalar bilan $u\big|_{t=0} = \varphi(x); \quad p\big|_{t=0} = \psi(x)$ boshlang‘ich qiymatlar orqali aniqlanadi. Bu formulalar $f(z)$, $g(z)$ funksiyalarni faqat $0 \le z \le l$ da aniqlaydi, ya’ni $x - c_0 t \ge 0, \quad x + c_0 t \le l$ xarakteristik uchburchak ichida yechimni qurish imkonini beradi.

Yechimni butun $0 \le x \le l$ yo‘lakchada qurish uchun va $x=0$, l da $u=0$ chegaraviy shartlarining bajarilishi uchun, boshlang‘ich qiymatlarni butun x o‘qiga sun’iy usulda davom ettirishdan foydalanamiz. *f(z), g(z)* funksiyalarni $0 \le z \le l$ da aniqlab, ularni barcha z qiymatlarida shunday davom ettiramizki $f(z) = -g(-z),\quad f(l\text{-}z) = \text{-}g(l+z)$ bo‘lsin. Ishonch hosil qilish mumkinki, agar $f(0)+g(0)=0,\ f(l)+g(l)=0$ bo‘lsa, u holda bunday davom ettirish o‘rinli va yagona usulda amalga oshirish mumkin. Haqiqatdan ham, agar biz $0 \le z \le l$ da *f(z), g(z)* funksiyalarni bilsak, u holda *f(-z)=-g(z), -f(z)=g(-z)* formulalar bu funksiyalarni $-l \le z \le 0$ da aniqlashga imkon beradi. *f(0)+g(0)=0* tenglik funksiyalarni davom ettirishgacha va davom ettirishdan keyin ham *z*=0 dagi qiymatlarining ustma-ust tushushini ta’minlaydi. Endi *f(z), g(z)* ni butun to‘g‘ri chiziqda *2l* davrli davriy funksiyalar bilan davom ettiramiz:

$$f(z+2l) = f(z), \qquad g(z+2l) = g(z)$$

Bunaqa uzluksiz davom ettirish imkoniyati $f(l)+g(l)=0$ shart va $f(-l) = -g(l),\ g(\text{-}l) = \text{-}f(l)$ davom ettirish shartlaridan kelib chikadigan $f(l) = f(-l),$ $g(l) = g(-l)$ tengliklar bilan ta’minlanadi. Butun *z* o‘qiga davom ettirilgan *f(z), g(z)* funksiyalar uzluksiz va birinchi hamda ikkinchi tartibli uzluksiz hosilalarga ega deb faraz qilamiz. Qurilgan yechim *x* va *t* bo‘yicha birinchi va ikkinchi tartibli uzluksiz xususiy hosilalarga ega ekanligi ko‘rinib turibti.

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u}{\partial t} + \dfrac{1}{\rho_0}\dfrac{\partial p}{\partial x} = 0, \\ \dfrac{\partial p}{\partial t} + \rho_0 c_0^2 \dfrac{\partial u}{\partial x} = 0; \end{cases} \qquad u(0,\ t) = u(l,t) = 0$$

tenglamani va chegaraviy shartlarni t vaqt bo‘yicha differensiallasak, u_t, p_t hosilalar ham shunga o‘xshash

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u}{\partial t} + \dfrac{1}{\rho_0}\dfrac{\partial p_t}{\partial x} = 0, \\ \dfrac{\partial p_t}{\partial t} + \rho_0 c_0^2 \dfrac{\partial u_t}{\partial x} = 0 \end{cases}$$

sistema va $u_t(0,t) = u_t(l,t) = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi. Dastlabki tenglamalardan foydalanib u_t, p_t ifodalarni u_x, p_x orqali ifodalash mumkin va bu ifodalar quyidagi tenglama va chegaraviy shartlarni qanoatlantirishiga ishonch hosil qilish mumkin:

$$\begin{cases} \dfrac{\partial p_x}{\partial t} + \dfrac{1}{\rho_0}\dfrac{\partial(\rho_0^2 c_0^2 u_x)}{\partial x} = 0, \\ \dfrac{\partial(p_0^2 c_0^2 u_x)}{\partial t} + \rho_0 c_0^2 \dfrac{\partial p_x}{\partial x} = 0; \end{cases} \qquad p_x(0,\ t) = p_x(l,\ t) = 0$$

Dastlabki tenglamalar va ulardan olingan u_t, p_t, u_x, p_x hosilalar ishtirok etgan tenglamalardan iborat sistema kengaytirilgan tenglamalar sistemasi deb ataladi. Bunday sistemalar yechim xossalarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi va muhim rol o‘ynaydi. $u(0,t) = u(l,t) = 0$ chegaraviy shartlar bilan berilgan aralash masala yechimining yagonaligini isbotlash uchun, yana energiya integralidan foydalanish mumkin.

$$\int_0^l \left[\rho_0 \frac{u^2(x,t)}{2} + \frac{p^2(x,t)}{2\rho_0 c_0^2} \right] dx = \int_0^l \left[\rho_0 \frac{u^2(x,0)}{2} + \frac{p^2(x,0)}{2\rho_0 c_0^2} \right] dx + \int_0^t p(0,t)\, u(0,t) dx -$$

$$- \int_0^t p(l,t)\, u(l,t) dt = \int_0^l \left[\rho_0 \frac{\varphi^2(x)}{2} + \frac{\psi^2(x)}{2\rho_0 c_0^2} \right] dx$$

tenglikdan

$\varphi(x) = 0, \quad \psi(x) = 0$ nolga teng bo‘lgan boshlang‘ich qiymatlarga nol qiymatli yechim mos kelishi kelib chiqadi.

$$\begin{cases} u_t(0,t) = -\dfrac{1}{\rho_0} p_x(0,t) = -\dfrac{1}{\rho_0} \psi'(x), \\ p_t(0,t) = -\rho_0 c_0^2 u_x(0,t) = -\rho_0 c_0^2 \varphi'(x), \end{cases}$$

$$\begin{cases} p_x(0,t) = \psi'(x) \\ \rho_0^2 c_0^2 u_x(0,t) = \rho_0^2 c_0^2 \varphi'(x) \end{cases}$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi kengaytirilgan sistemaning u_t, p_t, p_x, $\rho_0^2 c_0^2 u_x$ yechimlari uchun integral ayniyatni qo‘llab, dastlabki sistema uchun energiya integrali bilan birga

$$\int_0^l u^2(x,t) dx, \int_0^l u_t^2(x,t) dx, \int_0^l u_x^2(x,t) dx,$$

$$\int_0^l p^2(x,t) dx, \int_0^l p_t^2(x,t) dx \quad \int_0^l p_x^2(x,t) dx$$

integrallarni boshlang‘ich berilgan funksiyalarning

$$\int_0^l \varphi^2(x) dx, \quad \int_0^l \psi^2(x) dx, \quad \int_0^l (\varphi')^2 dx, \quad \int_0^l (\psi')^2 dx$$

integrallari orqali baholashga imkon beruvchi

$$\int_0^l \left[\rho_0 \frac{u_t^2(x,t)}{2} + \frac{p_t^2(x,t)}{2\rho_0 c_0^2} \right] dx = \int_0^l \left\{ \frac{[\psi'(x)]^2}{2\rho_0} + \frac{\rho_0 c_0^2}{2} [\varphi'(x)]^2 \right\} dx,$$

$$\int_0^l \left[\rho_0 \frac{p_x^2(x,t)}{2} + \frac{\rho_0^2 c_0^2 u_x^2(x,t)}{2} \right] dx = \int_0^l \left\{ \rho_0 \frac{[\psi'(x)]^2}{2} + \frac{\rho_0^2 c_0^2}{2} [\varphi'(x)]^2 \right\} dx$$

tengliklarga kelamiz.

Aralash masala yechimini vaqtning $0 < t < T$ intervalida qarab, energiya integrali ayniyatini t bo‘yicha integrallab quyidagi tengliklarni olish qiyin emas:

$$\int_0^T \int_0^l \left[\rho_0 \frac{u^2(x,t)}{2} + \frac{1}{2\rho_0 c_0^2} p^2(x,t) \right] dx dt = T \int_0^l \left\{ \rho_0 \frac{\varphi^2(x)}{2} + \frac{\psi^2(x)}{2\rho_0 c_0^2} \right\} dx,$$

$$\int_0^T \int_0^l \left[\rho_0 \frac{u_t^2(x,t)}{2} + \frac{1}{2\rho_0 c_0^2} p_t^2(x,t) \right] dx dt = T l_0^2 \int_0^l \left\{ \rho_0 \frac{[\varphi'(x)]^2}{2} + \frac{[\psi'(x)]^2}{2\rho_0 c_0^2} \right\} dx,$$

$$\int_0^T\int_0^l\left[\rho_0\frac{u_x^2(x,t)}{2}+\frac{1}{2\rho_0c_0^2}p_x^2(x,t)\right]dxdt=T\int_0^l\left\{\rho_0\frac{[\varphi'(x)]^2}{2}+\frac{[\psi'(x)]^2}{2\rho_0c_0^2}\right\}dx,$$

Bular yordamida

$$\int_0^T\int_0^l u^2(x,t)dxdt,\ \int_0^T\int_0^l u_t^2(x,t)dxdt,\ \int_0^T\int_0^l u_x^2(x,t)dxdt,$$

$$\int_0^T\int_0^l p^2(x,t)dxdt,\ \int_0^T\int_0^l p_t^2(x,t)dxdt,\ \int_0^T\int_0^l p_x^2(x,t)dxdt$$

integrallar baholanadi. Bunday turdagi baholar keyinchalik giperbolik sistema yechimlari xossalarini o‘rganishda asos qilib olinadi. Albatta hosilalar uchun integral ayniyat faqat o‘xshashlik uchun energiya integrali deb nomlanishi mumkin. Lekin ular uchun shunday nomlash qabul qilingan va biz undan foydalanamiz. Kelgusi tadqiqotlar uchun masalaga operator nuqtai nazaridan yondoshish ancha qulaydir.

u(0,t)=u(l,t) chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi

$$\begin{cases}\dfrac{\partial u}{\partial t}+\dfrac{1}{\rho_0}\dfrac{\partial p}{\partial x}=0\\ \dfrac{\partial p}{\partial t}+\rho_0c_0^2\dfrac{\partial u}{\partial x}=0\end{cases}$$

tenglamalar sistemasini qaraymiz.

$\varphi(x),\psi(x)\quad(0\le x\le l)$ boshlang‘ich qiymatlarni yuqoridagi masala $u(x,t),\ p(x,t)\ (0\le x\le l,\ 0\le t\le T)$ echimlariga akslantiruvchi: $\begin{pmatrix}u\\p\end{pmatrix}=R\begin{pmatrix}\varphi\\\psi\end{pmatrix}$ R operatorini aniqlaydi. $\varphi(x),\psi(x)$ boshlang‘ich qiymatlarni

$$\left\|\begin{matrix}\varphi\\\psi\end{matrix}\right\|_\Phi=\sqrt{\int_0^l\left\{\varphi^2(x)+\psi^2(x)+[\varphi'(x)]^2+[\psi'(x)]^2\right\}dx}$$

norma bilan aniqlangan F funksional fazo vektori deb qaraymiz, $u(x,t)$, $p(x,t)$ yechimlarni esa

$$\left\|\begin{matrix}u\\p\end{matrix}\right\|_U=\sqrt{\frac{1}{T}\int_0^T\int_0^l\left\{u^2(x,t)+p^2(x,t)+u_t^2(x,t)+u_x^2(x,t)+p_t^2(x,t)+p_x^2(x,t)\right\}dxdt}+$$

$$+\max_{0\le t\le T}\sqrt{\int_0^l\left[u^2(x,t)+p^2(x,t)+u_x^2(x,t)+p_x^2(x,t)\right]dx}$$

norma bilan aniqlangan U fazoning vektori deb qaraymiz.

Energiya interali yordamida olingan baholar, quyidagi ρ_0, c_0, T orqali ifodalanuvchi o‘zgarmas M bilan baholovchi tengsizlik ko‘rinishida yozilishi mumkin:

$$\left\|\begin{matrix}u\\p\end{matrix}\right\|_U\le M\left\|\begin{matrix}\varphi\\\psi\end{matrix}\right\|_\Phi .$$

Ushbu tengsizlikni esa $\Phi\xrightarrow{R}U$ akslantirishni amalga oshiruvchi R operator normasi uchun $\|R\|\le M$ baho deb tushunish mumkin. Biz bu akslantirishni

$$\varphi(0)=0,\ \psi'(0)=0,\ \varphi''(0)=0,$$

$$\varphi(l)=0,\ \psi'(l)=0,\ \varphi''(l)=0$$

muvofiqlashtirish shartlarini qanoatlantiruvchi F fazoning yetarlicha silliq ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi $\{\varphi(x), \psi(\text{x})\}$ elementlari uchun aniqlaymiz. Funksional analizda fazoni to‘liq va to‘liqmasga farqlash qabul qilingan. To‘liq fazoda har qanday fundamental ketma-ketlik uchun bu ketma-ketlik yaqinlashadigan shu fazo elementini ko‘rsatish mumkin. Agar F fazo tarkibiga faqat ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi $\varphi(x), \psi(\text{x})$ funksiyalarni kiritsak, ushbu fazo to‘liq deb atalmaydi. Chunki $\| \|_{\Phi}$ bo‘yicha yaqinlashishidan φ'', ψ'' ikkinchi tartibli hosilalarning yaqinlashishi haqida hech qanday xulosa chiqarish mumkin emas (φ'', ψ'' - lar normaga kirmaydi).

$\| \|_{\Phi}$ buyicha $\left\{\varphi(x) = \left|\frac{l}{2} - x\right|, \ \psi(\text{x}) = 0\right\}$ juftlikka yaqinlashuvchi ikki marta differensiallanuvchi $\{\varphi_n(x), \ \psi_n(x)\}$ juftlikdan iborat, shunday fundamental ketma-ketlik qurish mumkinki, undagi $\varphi(x)$ funksiya x=0 da hatto birinchi tartibli hosilaga ega bo‘lmaydi.

Bunday ketma-ketlikni qurish matematik analiz kursining standart mashqidir, shu sababli biz bunga to‘xtalib o‘tirmaymiz. Ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi $\varphi(x), \psi(x)$ funksiyalardan iborat boshlang‘ich qiymatlar F fazosini va mos silliq yechimlarning U fazosining to‘liqmasligi nazariyani qurishni murakkablashtiradi. Ya’ni F fazodan olingan boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi taqribiy yoki aniq yechimlarning fundamental ketma-ketligini qurib, bunday ketma-ketlik limiti F fazoda yotuvchi boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiradi va U fazoda yotadi deb tasdiqlashga imkon bermaydi. Biroq bu muammoni yo‘qotish mumkin, agar F, U fazolarga ulardagi barcha silliq elementlarning mumkin bo‘lgan fundamental ketma-ketliklar limitlarini kiritsak, metrik fazoda bunday ideal elementni (fundamental ketma-ketliklar limitlarini) kiritish, fazoni to‘ldirish deb ataladi. Ratsional sonlar to‘plamini barcha haqiqiy sonlar to‘plamiga kengaytirish fazoni to‘ldirishga yaxshi misol bo‘ladi.

Metrik fazoni to‘ldirish nazariyasini mukammalroq bayoni bilan [3], [4] darsliklar bo‘yicha tanishish mumkin. Yuqorida o‘rganilgan aralash masala yechimini beruvchi chegaralangan R operatorni F fazodagi to‘ldirilgan boshlang‘ich qiymatlar to‘plamigacha kengaytirish mumkin. Shundan so‘ng R operator to‘ldirilgan boshlang‘ich qiymatlar fazosi elementlarini to‘ldirilgan silliq yechimlar U fazosi elementlariga akslantiradi. To‘ldirilgan U fazo elementlariga umumlashgan yechim nomi beriladi.

Shu bilan, boshlang‘ich berilganlar fazosida yotuvchi elementlarni, yechimlar fazosida yotuvchi funksiyalarga akslantiruvchi operatorlarga asoslangan nazariyaga hozircha yakun yasaymiz.

2-mavzu. Ayirmali sxema turg‘unligini isbotlashning energetik usullari.

2.1.Aprior baho. Nostatsionar gaz dinamikasi tenglamalari.
2.2.Statsionar Eyler tenglamalari. Saint-Venant tenglamalari.
2.3.Xususiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalani

Ta'rif: $$A\frac{\partial u}{\partial t}+B\frac{\partial u}{\partial x}+C\frac{\partial u}{\partial y}=f$$

tenglamalar sistemasi (Fridrixs buyicha) simmetrik t - giperbolik sistema deyiladi, agar A, V, S matritsalar simmetrik, shu bilan birga A musbat aniqlangan bo'lsa. (*A, V, S* matritsaning barcha elementlari va o'ng tomon *f* vektor-funksiyaning yasovchilari odatdagidek *x, y, t* ning yetarlicha silliq funksiyalari deb faraz qilinadi).

<u>Misol.</u> Biz ko'rgan tovush to'lqinlari tarqalish tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{cases}\dfrac{1}{\rho_0 c_0^2}\dfrac{\partial p}{\partial t}+\dfrac{\partial u}{\partial x}+\dfrac{\partial v}{\partial y}=0\\ \rho_0\dfrac{\partial u}{\partial t}+\dfrac{\partial p}{\partial x}=0\\ \rho_0\dfrac{\partial v}{\partial t}+\dfrac{\partial p}{\partial y}=0\end{cases}$$

Oldingi misol bilan solishtirib, biz birinchi tenglamani $\rho_0 c_0^2$ ga bo'ldik, keyingi ikkitasini ρ_0 ko'paytirdik.

Qaralayotgan sistema matritsaviy ko'rinishida quyidagacha yoziladi:

$$\begin{pmatrix}\dfrac{1}{\rho_0 c_0^2} & 0 & 0\\ 0 & \rho_0 & 0\\ 0 & 0 & \rho_0\end{pmatrix}\frac{\partial}{\partial t}\begin{pmatrix}p\\ u\\ v\end{pmatrix}+\begin{pmatrix}0 & 1 & 0\\ 1 & 0 & 0\\ 0 & 0 & 0\end{pmatrix}\frac{\partial}{\partial x}\begin{pmatrix}p\\ u\\ v\end{pmatrix}+\begin{pmatrix}0 & 0 & 1\\ 0 & 0 & 0\\ 1 & 0 & 0\end{pmatrix}\frac{\partial}{\partial y}\begin{pmatrix}p\\ u\\ v\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}0\\ 0\\ 0\end{pmatrix}$$

Ushbu sistemadagi

$$A=\begin{pmatrix}\dfrac{1}{\rho_0 c_0^2} & 0 & 0\\ 0 & \rho_0 & 0\\ 0 & 0 & \rho_0\end{pmatrix},\quad \mathrm{B}=\begin{pmatrix}0 & 1 & 0\\ 1 & 0 & 0\\ 0 & 0 & 0\end{pmatrix},\ \mathrm{C}=\begin{pmatrix}0 & 0 & 1\\ 0 & 0 & 0\\ 1 & 0 & 0\end{pmatrix}$$

matritsalar yuqorida keltirilgan ta'rifning barcha shartlarini qanoatlantiradi va shuning uchun tovush tarqalish tenglamasi simmetrik t – giperbolik sistemani tashkil qiladi.

Simmetrik t-giperbolik sistemalarning yechimlari qanoatlantiradigan ba'zi muhim tengliklarni keyingi bobda batafsil o'rganamiz. Ushbu tengliklar akustika tenglamalari yoki Maksvell tenglamalarining yechimlari uchun energiyaning saqlanish qonunini umumlashtiruvchi energiya integrallari nomi bilan ataladi. Hozircha mavjud bo'lgan simmetrik giperbolik sistemalar nazariyasi bu ayniyatlarga asoslanadi.

$A(x,y,t,u)\frac{\partial u}{\partial t}+B(x,y,t,u)\frac{\partial u}{\partial x}+C(x,y,t,u)\frac{\partial u}{\partial y}=f(x,y,t,u)$ (bu yerda A, V, S- matritsalar, u – n o‘lchovli vektor-funksiya) sistema uchun xarakteristikalarni shunday S sirtlar kabi aniqladikki, S sirtga o‘tkazilgan normal (τ,ξ,η) vektori

$$\det\|\tau A+\xi B+\eta C\|=0$$

tenglikni qanoatlantiradi.

Ko‘rish mumkinki, bu ta’rif izlanayotgan funksiyalar to‘plamini ixtiyoriy chiziqli xosmas almashtirishda va dastlabki tenglamani ularning ixtiyoriy chiziqli kombinatsiyasi bilan almashtirganda o‘zgarmaydigan sirtni ajratadi.

Aynan $u=Tv$ ni qo‘yamiz (T=T(x,y,t) – xosmas matritsa). U holda v funksiya

$$AT\frac{\partial v}{\partial t}+BT\frac{\partial v}{dx}+CT\frac{\partial v}{dy}=f-\left(A\frac{\partial T}{\partial t}+B\frac{\partial T}{dx}+C\frac{\partial T}{dy}\right)v$$

sistemani qanoatlantiradi.

Sistema tenglamalarini ularni chiziqli kombinatsiyalari bilan almashtirish, sistemani chapdan xosmas Q matritsaga ko‘paytirishga ekvivalent. Bunda tenglamalar sistemasi

$$QAT\frac{\partial v}{\partial t}+QBT\frac{\partial v}{\partial x}+QCT\frac{\partial v}{\partial y}=Qf-Q\left(A\frac{\partial T}{\partial t}+B\frac{\partial T}{\partial x}+C\frac{\partial T}{\partial y}\right)v$$

ko‘rinishni oladi. Agar Q xos matritsa bo‘lsa, bu tenglamalar sistemasi dastlabki tenglamalar sistemasiga ekvivalent bo‘lmas edi.

Bunday almashtirilgan sistemalar uchun xarakteristika tenglamasini yozamiz:

$$\det\|\tau QAT+\xi QBT+\eta QCT\|=0$$

Matritsalar ko‘paytmasining determinanti haqidagi teoremaga asosan

$$\det\|\tau QAT+\xi QBT+\eta QCT\|=\det\|Q(\tau A+\xi B+\eta C)T\|=\det\|Q\|\det\|\tau A+\xi B+\eta C\|\det\|\|\|T\|$$

$$\det\|Q\|\neq 0,\ \det\|\mathrm{T}\|\neq 0$$

tengsizlikka asosan

$$\det\|\tau A+\xi B+\eta C\|=0 \qquad (3)$$

tenglama

$$\det\|\tau QAT+\xi QBT+\eta QCT\|=0$$

tenglamaga ekvivalent.

Xarakteristika tushunchasining izlanayotgan funksiyalar to‘plamini xosmas chiziqli almashtirishiga nisbatan va tenglamalar sistemasini ixtiyoriy unga teng kuchli bo‘lgan tenglamalar chiziqli kombinatsiyasidan tashkil topgan sistemaga nisbatan invariantligi isbotlandi.

(3) tenglikni qanoatlantiruvchi (τ,ξ,η) vektorlar to‘plami konus bo‘lib, har bir (τ,ξ,η) vektor bilan unga kolleniar $(k\tau,k\xi,k\eta)$ ko‘rinishidagi vektorlar ham bu tenglikni qanoatlantiradi. Bunday tenglama bilan aniqlanadigan konus xarakteristika uchun normallar konusi yoki qisqacha xarakteristik normallar konusi deb ataladi. Agar *A*, *V*,

S koeffitsientlar matritsasi x,y,t koordinatalarga bog‘liq bo‘lsa, u holda xarakteristik normallar konusi

$$\det\left\| \tau A(x,y,t) + \xi B(x,y,t) + \eta C(x,y,t \right\| = 0$$

x,y,t fazoning har bir nuqtasida o‘zgacha bo‘ladi.

Xarakteristika ta’rifini ikkinchi tartibli bitta tenglama holida ham beramiz:

$$A\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + 2B\frac{\partial^2 u}{\partial t \partial x} + C\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = f(x,t,u,u_x,u_t)$$

erkli o‘zgaruvchilar soni ikkita bo‘lgan hol bilan chegaralanamiz. Ko‘p sondagi erkli o‘zgaruvchilar holida xam, xarakteristikalar aynan shunday aniqlanadi.

$$\varphi = \varphi(x,t), \quad \alpha = \alpha(\mathrm{x,\ t}), \quad \frac{\mathrm{D}(\varphi,\alpha)}{\mathrm{D(x,\ t)}} \neq 0$$

yangi koordinatalar sistemasiga o‘tamiz. Bu koordinatalar sistemasida tenglama quyidagicha yoziladi:

$$\left[A\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)^2 + 2B\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)\left(\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right) + C\left(\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right)^2 \right]\frac{\partial^2 u}{\partial\varphi^2} + 2\left[A\frac{\partial\varphi}{\partial t}\frac{\partial\alpha}{\partial t} + B\frac{\partial\varphi}{\partial t}\frac{\partial\alpha}{\partial x} + B\frac{\partial\varphi}{\partial x}\frac{\partial\alpha}{\partial t} + C\frac{\partial\varphi}{\partial x}\frac{\partial\alpha}{\partial x} \right]\times$$

$$\times\frac{\partial^2 u}{\partial\varphi\partial\alpha} + \left[A\left(\frac{\partial\alpha}{\partial t}\right)^2 + 2B\left(\frac{\partial\alpha}{\partial t}\right)\left(\frac{\partial\alpha}{\partial x}\right) + C\left(\frac{\partial\alpha}{\partial x}\right)^2 \right]\frac{\partial^2 u}{\partial\alpha^2} + \left[A\frac{\partial^2\varphi}{\partial t^2} + 2B\frac{\partial^2\varphi}{\partial t\partial x} + C\frac{\partial^2\varphi}{\partial x^2} \right]\frac{\partial u}{\partial\varphi} +$$

$$+\left[A\frac{\partial^2\alpha}{\partial t^2} + 2B\frac{\partial^2\alpha}{\partial t\partial x} + C\frac{\partial^2\alpha}{\partial x^2} \right]\frac{\partial u}{\partial x} = f\left(x,t,u,u_\varphi\varphi_x + u_\varphi\alpha_x, u_\varphi\varphi_t + u_\alpha\alpha_t\right)$$

Endi faraz qilamiz, biror $\varphi = \varphi_0 = const$ egri chiziqda u funksiya (α o‘zgaruvchining funksiyasi sifatida) va uning barcha birinchi tartibli hosilalari berilgan bo‘lsin. u funksiya va uning $\frac{\partial u}{\partial\varphi}$ hosilasi ma’lumligi biz uchun juda muhim. Ularni α bo‘yicha differensiallab (ya’ni egri chiziq buylab), bu egri chiziqda

$$\frac{\partial u}{\partial\alpha}, \frac{\partial^2 u}{\partial\alpha^2}, \frac{\partial^2 u}{\partial\varphi\partial\alpha}$$

ifodalarni topamiz.

Agar

$$A\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)^2 + 2B\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)\left(\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right) + C\left(\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right)^2 \neq 0$$

bo‘lsa, tenglama yordamida $\frac{\partial^2 u}{\partial\varphi^2}$ ni topishimiz mumkin.

$$A\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)^2 + 2B\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)\left(\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right) + C\left(\frac{\partial\alpha}{\partial x}\right)^2 = 0 \qquad (4)$$

tenglikni qanoatlatiruvchi $\varphi(x,t) = const$ $(\mathrm{grad}\ \ \varphi \neq 0)$ egri chiziqlar

$$A\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + 2B\frac{\partial^2 u}{\partial t\partial x} + C\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = f$$

tenglamaning xarakteristikalari deb ataladi.

Xarakteristikalar sistema uchun qanday rol o‘ynagan bo‘lsa, tenglama uchun ham xuddi shunday muhim rol o‘ynaydi. Ikkinchi tartibli tenglamalar uchun xarakeristikani ta’riflashda, yuqorida qaralgan sistemadagi kabi, (4) tenglikni unga ekvivalent bo‘lgan

$$A\tau^2+2B\tau\xi+C\xi^2=0$$

tenglikka almashtirish mumkin. Bu yerda (τ,ξ) - tadqiq qilinadigan egri chiziqqa o‘tkazilgan normal vektori. Agar $\varphi(x,t)=\varphi_0$ egri chiziq xarakteristika bo‘lsa, u xolda *u ye*chim yshbu xarakteristika bo‘ylab quyidagi tenglikni qanoatlantiradi:

$$2\left[A\frac{\partial\varphi}{\partial t}\frac{\partial\alpha}{\partial t}+B\frac{\partial\varphi}{\partial t}\frac{\partial\alpha}{\partial x}+B\frac{\partial\varphi}{\partial x}\frac{\partial\alpha}{\partial t}+C\frac{\partial\varphi}{\partial x}\frac{\partial\alpha}{\partial x}\right]\frac{\partial}{\partial\alpha}\left(\frac{\partial u}{\partial\varphi}\right)+\left[A\left(\frac{\partial\alpha}{\partial t}\right)^2+2B\frac{\partial\alpha}{\partial t}\frac{\partial\alpha}{\partial x}+C\left(\frac{\partial\alpha}{\partial x}\right)^2\right]\times$$

$$\times\frac{\partial^2u}{\partial\alpha^2}+\left[A\frac{\partial^2u}{\partial t^2}+2B\frac{\partial^2\varphi}{\partial t\partial x}+C\frac{\partial^2\varphi}{\partial x^2}\right]\frac{\partial u}{\partial\varphi}+\left[A\frac{\partial^2\alpha}{\partial t^2}+2B\frac{\partial^2\alpha}{\partial t\partial x}+C\frac{\partial^2\alpha}{\partial x^2}\right]\frac{\partial u}{\partial\alpha}=$$

$$=f\left(x,t,u,u_\varphi\varphi_x+u_\alpha\alpha_x;u_\varphi\varphi_t+u_\alpha\alpha_t\right)$$

Bu tenglikni xarakteristika bo‘ylab $u,\frac{\partial u}{\partial\varphi}$ orasidagi munosabat deb qarash mumkin.

Ikkinchi tartibli tenglama uchun Koshi masalasi quyidagicha quyiladi. Biror $\varphi=const$ chiziqlar ustida $u,\frac{\partial u}{\partial\varphi}$ qiymatlarni berib, bu chiziq atrofida yechimni aniqlashga xarakat qilishimiz kerak. Agar $\varphi=const$ egri chiziq xarakteristika bo‘lsa, unda ushbu chiziqda Koshi masalasini quyib bo‘lmaydi. Egri chizikda *u* funksiya qiymatini berib, xarakteristika uchun yozilgan tengliklardan u_φ qiymatni aniqlashimiz mumkin. Aytish joizki ba’zan, yechimni aniqlash uchun xarakteristika ustida *u* funksiya qiymatini berish yetarli, lekin bunaqa masalani quyish, Koshi masalasi deb atash notabiiy bo‘ladi.

Misol 1. $\frac{\partial^2u}{\partial t^2}-\frac{\partial^2u}{\partial x^2}=0$ tenglama uchun xarakteristikalar.

$\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)^2-\left(\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right)^2=\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}-\frac{\partial\varphi}{dx}\right)\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}+\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right)=0$ tenglik bilan aniqlanadi.

$\frac{\partial\varphi}{\partial t}+\frac{\partial\varphi}{\partial x}=0$ tenglamaning umumiy yechimi $\varphi=\varphi(x-t)$ ko‘rinishga ega, $\frac{\partial\varphi}{\partial t}-\frac{\partial\varphi}{\partial x}$ =0 tenglamaning umumiy yechimi $\varphi=\varphi(x+t)$ ko‘rinishda bo‘ladi. $\varphi(x-t)=const$ yoki $\varphi(x+t)=const$ tengliklar, qaralayotgan tenglamaning xarakteristikalari bo‘ladigan ikkita $x\pm t=const$ to‘g‘ri chiziqlar oilasini aniqlaydi.

2. $\frac{\partial^2u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2u}{\partial y^2}=0$ Laplas tenglamasi uchun $\left(\frac{\partial\varphi}{\partial t}\right)^2+\left(\frac{\partial\varphi}{\partial x}\right)^2=0$ xarakteristikalar tenglamasi haqiqiy yechimga ega emas.

3. $\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}=\frac{\partial u}{\partial t}$ issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi $\left(\frac{\partial \varphi}{\partial x}\right)^2=0$ xarakteristik tenglamaga olib keladi. Bu tenglamaning umumiy yechimi $\varphi=\varphi(t)$ ko‘rinishda bo‘ladi. $\varphi(\mathrm{t})=\mathrm{const}\quad(\mathrm{t}=const)$ xarakteristikalar esa x o‘qiga parallel chiziqlardan iborat. $u(x,0)$ boshlang‘ich qiymatlar bo‘yicha, $t>0$ uchun temperaturani aniqlash masalasi xarakteristika ustida berilgan masaladan iborat. Aynan shu sababli issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi ikkinchi tartibli bo‘lsa ham, boshlang‘ich shart sifatida faqat bitta shart beriladi. Issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun boshlang‘ich masala aslida Koshi masalasi emas, ammo adabiyotlarda uni Koshi masalasi deb atalishi tez-tez uchraydi.

Xususiy hosilali tenglamalarni xarakteristik tenglama xossalari bo‘yicha sinflarga bo‘linishi tabiiy ekanligi ko‘rinib turibti. Yuqorida aniqlangan giperbolik sistemalar tushunchasi shu asosda kiritilgan edi. Endi elliptik sistema yoki tenglama ta’rifini beramiz.

$$A\frac{\partial u}{\partial x}+B\frac{\partial u}{\partial y}+C\frac{\partial u}{\partial z}=f$$

sistema elliptik deyiladi, agar uning xarakteristik tenglamasi

$$det\|\xi A+\eta B+\zeta C\|=0,\quad \xi^2+\eta^2+\zeta^2>0$$

shartlarni qanoatlantiruvchi (ξ,η,ζ) haqiqiy yechimga ega bo‘lmasa. Bitta

$$A\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+2B\frac{\partial^2 u}{\partial x\partial y}+C\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}=f$$

tenglamaga elliptiklik ta’rifini berish uchun uning

$$A\xi^2+2B\xi\,\eta+C\eta^2=0$$

xarakteristik tenglamasini qarash kerak va u $(\xi,\eta),\quad \xi^2+\eta^2>0$ bo‘lgan haqiqiy yechimlarga ega bo‘lmasligi talab qilinadi.

Elliptik sistemasiga

$$\begin{cases}\frac{\partial u}{\partial x}-\frac{\partial v}{\partial y}=0,\\ \frac{\partial u}{\partial y}+\frac{\partial v}{\partial x}=0\end{cases}$$

Koshi-Riman tenglamalar sistemasi misol bo‘ladi. Elliptik tenglamaga

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}=0$$

Laplas tenglamasi misol bo‘ladi.

$$\frac{\partial u}{\partial t}-\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}=0$$

issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi, xarakteristik tenglama sifatida ikkita ustma-ust tushuvchi tenglamalarga ajraluvchi $\xi^2 = 0$ tenglamalarga ega. U elliptik va giperbolik orasidagi oraliq parabolik sinfga tegishli.

Parabolik tenglamalarning ta’rifini bermasdan lekin unda nafaqat yuqori hosilalar oldidagi koeffitsientlar, balki boshqa koeffitsientlarni ham inobatga olinishini ta’kidlashimiz mumkin. Paragraf yakunida quyidagi holga e’tiboringizni jalb qilamiz. Yangi noma’lum funksiyalarga o‘tish va tenglamalarni ularni chiziqli kombinatsiyasiga almashtirish, xarakteristikalarni o‘zgartirishsiz qoldirishga qaramasdan, shunday holatlar bo‘ladiki, bir xil hodisalarni tavsiflash uchun har xil xarakteristikalarga ega tenglama va sistemalar qo‘llanishi mumkin. Misol keltiramiz.

$$\begin{cases} \dfrac{1}{c_0^2}\dfrac{\partial p}{\partial t} + \rho_0 \dfrac{\partial u}{\partial x} + \rho_0 \dfrac{\partial v}{\partial y} = 0 \\ \rho_0 \dfrac{\partial u}{\partial t} + \dfrac{\partial p}{\partial x} = 0 \\ \rho_0 \dfrac{\partial v}{\partial t} + \dfrac{\partial p}{\partial y} = 0 \end{cases}$$

akustika tenglamalarida, agar ulardan birinchisini t bo‘yicha differensiallab va natijadan ikkinchi va uchinchilarini mos ravishda x bo‘yicha va u bo‘yicha differensiallab ayirsak, ikkinchi tartibli bitta tenglamaga kelamiz:

$$\frac{1}{c_0^2}\frac{\partial^2 p}{\partial t^2} - \frac{\partial^2 p}{\partial x^2} - \frac{\partial^2 p}{\partial y^2} = 0$$

Uning $\varphi_t^2 - c_0^2\left(\varphi_x^2 + \varphi_y^2\right) = 0$ xarakteristik tenglamasi dastlabki sistemaning $\varphi_t\left[\varphi_t^2 - c_0^2\left(\varphi_x^2 + \varphi_y^2\right)\right] = 0$ xarakteristika tenglamasidan farq qiladi. Bu almashtirishlarda xarakteristikalarni invariant qoldiruvchi almashtirishlar ro‘yxatiga kirmagan differensiallash amalidan foydalanildi.

3-mavzu. Differensial tenglamalarni ayirmali tenglamalar bilan approksimatsiya qilish.

3.1. To‘r tenglamalar sistemasini yechish.
3.2. Chegaraviy shartlarni approksimatsiya etish.
3.3. To‘r tenglamalar sistemasini yechish.

To`r tenglamalarini yechish usullari yoritilgan ushbu bobda dastlab Puasson tenglamasi uchun Dirixle masalasiga mos differensial va ayirmali masala qo`yiladi, so`ngra ayirmali masalani yechishga imkon beradigan universal metodlardan biri bo`lgan dekompositsiya metodi, o`zgaruvchilarni ajratish metodi, to`r qurish algoritmlarini realizasiya qilish, oddiy iterasiya usuli, Puasson tenglamasi uchun ayirmali Dirixle masalasini optimal iterasiya parametrlarini tanlash orqali yechish algoritmi keltirilgan.

Elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni ayirmali approksimasiyalaganda chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga kelindi (ayirmali yoki to`r tenglamalari). Bunday sistemaning matritsasi $A$ juda katta tartibli bo`lib, uning tartibi N to`rning tugunlari soniga teng bo`ladi. Masalan, agar har bir o`zgaruvchi $x_1, x_2, ..., x_p$ bo`yicha h qadamli to`r olsak $(h_1 = h_2 = ... = h_p = h)$ tugunlar soni $N = O\left(\frac{1}{h^p}\right)$ ga teng bo`ladi, bu yerda p–o`lchamlar soni. Ikki va uch o`lchamli masalalar uchun tenglamalar soni $N \approx 10^4 - 10^6$ dan katta bo`ladi (masalan, $h = 1/100$ bo`lganda). Bundan tashqari, algebraik sistemaning matritsasida juda ko`p nol elementlar mavjud bo`lib, u maxsus (lentasimon) strukturaga ega va nihoyat, yomon shartlangan matritsadan iborat bo`ladi, ya’ni, matritsaning eng katta xos qiymatining eng kichik xos qiymatiga nisbati juda ham katta bo`ladi $(\sim 10^3 \div 10^4)$ va u $O(h^{-2})$ tartibli miqdor bo`ladi.

Elliptik to`r tenglamalarining ushbu jihatlari ularni sonli yechish uchun maxsus tejamli algoritmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Samarali bevosita yechish metodlari, odatda, to`r tenglamalarining o`ta tor, ammo, muhim sinfini yechishda qo`llaniladi. Bundan tashqari, bevosita yechish metodlari iterasiya metodlarida yuqori qatlamdagi operatorning teskarisini topishda mos ravishda tanlab olinadi.

Hozirda Puasson tenglamasi uchun ayirmali chegaraviy masalalarni dekart, qutb, silindrik va sferik koordinatalar sistemasida samarali yechishga imkon beradigan ikkita bevosita yechish metodi mavjud. Ulardan biri – dekompozisiya metodi yoki faktorizasiyaga ega bo`lgan juft-toq yo`qotish usuli, ushbu metod Gauss yo`qotish usulining takomillashtirilgan formasidan iborat. Ikkinchi metod – o`zgaruvchilarni ajratish metodi bo`lib, u Furyening tez almashtirish algoritmiga asoslangan.

Har ikkala metod uchun ikki o`lchamli masalani yechishga sarflanadigan arifmetik amallar soni uchun quyidagi baho o`rinli $\sim Q = O(N^2 \log_2 N)$, bu yerda N– bitta yo`nalish bo`yicha to`r tugunlari soni.

Ketma-ket yaqinlashuvchi iterasiya metodlari ixtiyoriy sohadagi yanada umumiy masalalarga, o`zgaruvchan koeffisientlarga ega bo`lgan umumiy ko`rinishdagi tenglamalarni yechishga qo`llanilishi mumkin.

To`r tenglamalarini yechish usullari

g chegaraga ega bo`lgan to`g`ri to`rtburchakli $\overline{G} = \{0 \le x_\alpha \le l_\alpha,\ \alpha = 1,2\}$ sohada Puasson tenglamasi uchun ayirmali Dirixle masalasini qaraylik:

$$\Delta u = \frac{\partial^2 u}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial x_2^2} = -f(x),\ \ x = (x_1, x_2) \in G, u|_g = \mu(x).. \qquad (1.1)$$

$\overline{G}$ sohada h_1 va h_2 qadamlar bilan ayirmali to`r kiritamiz:

$$\omega_h = \{i_1 h_1, i_2 h_2 \in \overline{G}, i_\alpha = 0,1,\dots,N_\alpha, h_\alpha N_\alpha = l_\alpha, \alpha = 1,2\}.$$

$\gamma_h = \{x_{i_1 i_2} \in g\}$ esa to`rning chegaraviy tugunlari bo`lsin. Differensial masala (15.1) ga mos keluvchi ayirmali masala quyidagi ko`rinishga ega

$$\begin{aligned} &\Lambda y = -f(x), x \in \omega_h,\ y|_{\gamma_h} = \mu(x), \\ &\Lambda = \Lambda_1 + \Lambda_2, \Lambda_\alpha y = y_{\bar{x}_\alpha x_\alpha}, \alpha = 1,2, \\ &y_{i_1 i_2} = y(i_1 h_1, i_2 h_2). \end{aligned} \qquad (1.2)$$

Dekompozisiya metodi. Ayirmali masala (1.2) ni vektorli tenglamalar sistemasi ko`rinishiga keltiramiz

$$\begin{aligned} &-Y_{j-1} + CY_j - Y_{j+1} = F_j,\ j = 1,2,\dots,N_2 - 1, \\ &Y_0 = F_0, Y_{N_2} = F_{N_2}, \end{aligned} \qquad (1.3)$$

bu yerda Y_j va F_j–vektorlar bo`lib, ularning komponentalari sifatida $y_{i_j} = y(ih_1, jh_2)$ yechimning va $f_{i_j} = f(ih_1, jh_2)$ o`ng tomonning ω_h to`rning

j–ustunidagi qiymatlari qaraladi, C–esa kvadrat matritsa bo`lib, uni quyida aniqlaymiz.

Haqiqatan ham, agar (1.2) tenglamaning o`ng tomonini chegaraga yaqin tugunlarda o`zgartirsak, u holda chegaraviy tugunlar $i=0, i=N_1$ da $y_{i_j}=0$ deb hisoblash mumkin.

Tenglama (1.2) ni quyidagi ko`rinishda yozib olamiz:

$$\begin{aligned} & -y_{i,j-1}+(2y-h_2^2 y_{\bar{x}_1 x_1})_{ij}-y_{i,j+1}=h_2^2\varphi_{ij}, \\ & 1\le i\le N_1-1, 1\le j\le N_2-1, \\ & y_{0j}=y_{N_1 j}=0,\ 0<j<N_2, \\ & y_{i0}=\mu_{i0},\ y_{iN_2}=\mu_{iN_2},\ 0<i<N_1, \end{aligned} \qquad (1.4)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} & \varphi_{ij}=f_{ij}\ agar 1<i<N_1-1, 1\le j\le N_2-1, \\ & \varphi_{1j}=f_{1j}+\frac{1}{h_1^2}\mu_{0j},\ \varphi_{N_1-1,1}=f_{N_1-1,j}+\frac{1}{h_1^2}\mu_{N_1 j}. \end{aligned} \qquad (1.5)$$

Vektorlar Y_j va F_j ni kiritamiz:

$$\begin{aligned} & Y_j=(y_{1j}, y_{2j},\dots,y_{N_1-1,j}),\ j=0,1,\dots,N_2, \\ & F_j=(h_2^2 f_{1j}+\frac{h_2^2}{h_1^2}\mu_{0j}, h_2^2 f_{2j},\dots,h_2^2 f_{N_1-2,j}, h_2^2 f_{N_1-1,j}+\frac{h_2^2}{h_1^2}\mu_{N_1 j}), \\ & j=1,2,\dots,N_2-1, \\ & F_j=(\mu_{1j},\mu_{2j},\dots,\mu_{N_1-1,j}),\ agar\ j=0, N_2. \end{aligned}$$

Ayirmali operator C ni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} & (CY_j)_i=(2y-h_2^2 y_{\bar{x}_1 x_1})_{ij},\ 0<i<N_1, \\ & y_{0j}=y_{N_1 j}=0. \end{aligned}$$

Bundan va (1.4) dan kelib chiqadiki, ayirmali masala (1.2) vektorli tenglamalar sistemasi (1.3) ga ekvivalent.

Dekompozisiya yoki toq-juft yo`qotish usulini bayon qilishga o`tamiz, bunda $N_2=2^n$ deb hisoblaymiz. Bu metodning asosiy g`oyasida tenglamalar (1.3) dan dastlab toq nomerli $Y_j$ vektorlar, so`ngra indekslari 2, 4, 8 va hokazolarga karrali bo`lgan juft nomerli $Y_j$ vektorlar yo`qotiladi.

Indekslarning

$$j = 2,4,6,\ldots,N_2 - 2, \quad \text{bu yerda } N_2 = 2^n$$

qiymatlari uchun quyidagi uchta tenglamani yozamiz

$$\begin{aligned} -Y_{j-2} + CY_{j-1} - Y_j &= F_{j-1}, \\ -Y_{j-1} + CY_j - Y_{j+1} &= F_j, \\ -Y_j + CY_{j+1} - Y_{j+2} &= F_{j+1}. \end{aligned}$$

Ikkinchi tenglamaga C operator bilan ta'sir etamiz va har uchala tenglamani qo`shib, quyidagi "qisqartirilgan" sistemani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} &-Y_{j-2} + C^{(1)}Y_j - Y_{j+2} = F_j^{(1)}, \\ &j = 2,4,6,\ldots,N_2 - 2, \\ &Y_0 = F_0,\ Y_{N_2} = F_{N_2}, \end{aligned} \quad (1.6)$$

u faqat juft indeksli noma'lumlarga bog`liq bo`ladi. bu yerda quyidagi belgilashlar kiritilgan

$$\begin{aligned} C^{(1)} &= [C^{(0)}]^2 - 2E, \\ F_j^{(1)} &= F_{j-1}^{(0)} + C^{(0)}F_j^{(0)} + F_{j+1}^{(0)}, \end{aligned}$$

bu yerda

$$C^{(0)} = C,\ F_j^{(0)} = F_j.$$

Agar tenglama (1.6) dan juft nomerli Y_j lar topilgan bo`lsa, u holda toq nomerli noma'lumlarni ushbu tenglamalardan aniqlash mumkin

$$\begin{aligned} &C^{(0)}Y_j = F_j^{(0)} + Y_{j+1} + Y_{j-1}, \\ &j = 1,3,5,\ldots,N_2 - 1. \end{aligned}$$

Tenglama (1.3) dan juft nomerli vektorlarni yo`qotganimizdek, sistema (1.6) dan nomeri $j$ 2 ga karrali bo`lgan, ammo 4 ga karrali bo`lmagan va hokazo noma'lumlarni yo`qotamiz. Natijada barcha noma'lumlarni ketma-ket topish uchun tenglamalar sistemasiga ega bo`lamiz, ular ushbu tenglamalarni yechish yo`li bilan topiladi

$$\begin{aligned} &C^{(k-1)}Y_j = F_j^{(k-1)} + Y_{j-2^{k-1}} + Y_{j+2^{k-1}}, \\ &j = 2^{k-1}, 3\cdot 2^{k-1}, 5\cdot 2^{k-1}, \ldots, (N_2 - 1)\cdot 2^{k-1}, \\ &Y_0 = F_0, Y_{N_2} = F_{N_2}, \end{aligned} \quad (1.7)$$

bu yerda $C^{(k)}$ va $F_j^{(k)}$ quyidagi rekurrent formulalar bo`yicha aniqlanadi:

$$
\begin{aligned}
&C^{(k)} = \left[C^{(k-1)}\right]^2 - 2E,\ k = 1,2,\dots,n-1,\\
&C^{(0)} = C,\\
&F_j^{(k)} = F_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + C^{(k-1)}F_j^{(k-1)} + F_{j+2^{k-1}}^{(k-1)},\\
&j = 2^k, 2\cdot 2^k, 3\cdot 2^k, \dots, N_2 - 2^k,\\
&k = 1,2,\dots,n-1.
\end{aligned}
\qquad (1.8)
$$

Dekompozisiya algoritmi, $C^{(k)}$ operatorni faktorizasiyalash (sodda operatorlarga ajratish) g`oyasiga asoslangan:

$$
\begin{aligned}
&C^{(k)} = \prod_{l=1}^{2^k}(C - \mu_l E),\\
&\mu_l = 2\cos\frac{(2l-1)\pi}{2^{k+1}},
\end{aligned}
\qquad (1.9)
$$

bu o`z navbatida $C^{(k)}$ operatorning teskarisini topish masalasini uch nuqtali ayirmali operatorning progonka metodi bilan ketma-ket teskarisini topishga keltiriladi.

Haqiqatan ham ushbu tenglamani yechish talab qilingan bo`lsin

$$C^{(k)}\vartheta = \varphi .$$

Agar $C^{(k)}$ operatorning (1.9) ko`rinishidagi ifodalanishini hisobga olsak, u holda ϑ ni topish masalasi quyidagi tenglamalarni ketma-ket yechish masalasiga keltiriladi,

$$
\begin{aligned}
&(C - \mu_1 E)\vartheta^{(1)} = \varphi,\\
&(C - \mu_l E)\vartheta^{(l)} = \vartheta^{(l-1)},\ l = 2,3,\dots,2^k,
\end{aligned}
$$

bunda izlanayotgan yechim $\vartheta = \vartheta^{(2k)}$ dan iborat. Yuqorida yozilgan tenglamalardan har biri ushbu uch nuqtali ayirmali tenglamani tashkil etadi

$$
\begin{aligned}
&2\vartheta^{(l)} - h_2^2\vartheta_{\bar{x}_1x_1}^{(l)} - \mu_l\vartheta^{(l)} = \vartheta^{(l-1)},\ h_1 \le x_1 \le l_1 - h_1,\\
&\vartheta^{(l)}(0) = \vartheta^{(l)}(l_1) = 0,
\end{aligned}
$$

u progonka metodi bilan yechiladi.

$F_j^{(k)}$ ni hisoblashda quyidagi algoritmdan foydalaniladi. Vektorlar $p_j^{(k)}$ va $q_j^{(k)}$ kiritiladi, ular orqali $F_j^{(k)}$ ushbu formula orqali ifodalanadi

$$F_j^{(k)} = C^{(k)}p_j^{(k)} + q_j^{(k)}. \qquad (1.10)$$

Vektorlar $p_j^{(k)}$ va $q_j^{(k)}$ larni hisoblash algoritmini hosil qilish uchun (1.10) ni, tenglama (1.8) ga qo`yamiz:

$$\begin{aligned} C^{(k)} p_j^{(k)} + q_j^{(k)} = C^{(k-1)}[p_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + p_{j+2^{k-1}}^{(k-1)} + q_j^{(k-1)}] + \\ + (C^{(k-1)})^2 p_j^{(k-1)} + p_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + q_{j+2^{k-1}}^{(k-1)}, \end{aligned} \quad (1.11)$$

so`ngra

$$q_j^{(k)} = 2 p_j^{(k)} + q_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + q_{j+2^{k-1}}^{(k-1)} \quad (1.12)$$

deb olamiz va tenglama (1.11) ni, munosabat $C^{(k)} = [C^{(k-1)}]^2 - 2E$ ni inobatga olgan holda yozib olamiz

$$(C^{(k-1)})^2 (p_j^{(k)} - p_j^{(k-1)}) = C^{(k-1)} (p_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + p_{j+2^{k-1}}^{(k-1)} + q_j^{(k-1)}).$$

Oxirgi tenglamani $C^{(k-1)}$ ga qisqartirib, ushbuga ega bo`lamiz

$$\begin{aligned} & C^{(k-1)} S_j^{(k-1)} = p_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + p_{j+2^{k-1}}^{(k-1)} + q_j^{(k-1)}, \\ & p_j^{(k)} = p_j^{(k-1)} + S_j^{(k-1)}, \end{aligned}$$

Bunda $q_j^{(k)}$ formula (1.12) ga asosan aniqlanadi.

Munosabat (1.10) ni (1.7) ga qo`yish quyidagini beradi

$$C^{(k-1)}[Y_j - p_j^{(k-1)}] = q_j^{(k-1)} + Y_{j-2^{k-1}} + Y_{j+2^{k-1}}.$$

Shunday qilib, $F_j^{(k)}$ o`rniga $p_j^{(k)}$ va $q_j^{(k)}$ vektorlarni kiritish orqali masala (1.2) ning yechimini topish masalasini faqat $C^{(k-1)}$ operatorning teskarisini topish va tenglamaning o`ng tomonini hisoblashda vektorlarni qo`shishga olib keladi.

Hisoblashlar quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

1. Boshlang`ich qiymatlar $p_0^{(k)}$, $q_0^{(k)}$ beriladi:

$$q_j^{(0)} = F_j, p_j^{(0)} = 0, j = 1,2,...,N_2 - 1.$$

2. Barcha $k = 1,2,...,n-1$ lar uchun ushbu tenglama yechiladi

$$C^{(k-1)} S_j^{(k-1)} = q_j^{(k-1)} + p_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + p_{j+2^{k-1}}^{(k-1)}$$

va $p_j^{(k)}$ va $q_j^{(k)}$ vektorlar barcha

$$j = 2^k, 2 \cdot 2^k, 3 \cdot 2^k, ..., N_2 - 2^k$$

lar uchun quyidagi formulalar bo`yicha hisoblanadi

$$p_j^{(k)} = p_j^{(k-1)} + S_j^{(k-1)},$$
$$q_j^{(k)} = 2p_j^{(k)} + q_{j-2^{k-1}}^{(k-1)} + q_{j+2^{k-1}}^{(k-1)}.$$

3. Ushbu tenglamalar yechiladi

$$C^{(k-1)}S_j^{(k-1)} = q_j^{(k-1)} + Y_{j-2^{k-1}} + Y_{j+2^{k-1}},$$
$$Y_0 = F_0, Y_{N_2} = F_{N_2}$$

va barcha $j = 2^{k-1}, 3\cdot 2^{k-1}, \ldots, N_2 - 2^{k-1}, k = n, n-1, \ldots, 1$ lar uchun izlanayotgan yechim

$$Y_j = p_j^{(k-1)} + S_j^{(k-1)}$$

hisoblanadi.

Dekompozisiya metodi $Q = O(N_1 N_2 \log_2 N_2)$ arifmetik amal va noma'lumlar soniga nisbatan 1.5 marta ko`p kompyuter xotirasi talab qiladi.

Endi o`zgaruvchilarni ajratish metodini qaraymiz, bu metod ham to`r tenglamalarini bevosita yechishga imkon beradi. Ayirmali masala (1.2) ni birjinsli chegaraviy shartlari bilan qaraylik

$$\Lambda y = -\varphi, y\big|_{\gamma_h} = 0, \tag{1.13}$$

bu yerda φ masala (1.2) ning o`ng tomoni *f* dan faqatgina chegaraga yaqin nuqtalarda farq qiladi, $i_1 = 1, i_1 = N_1 - 1$ da $\frac{1}{h_1^2}\mu$ ga, $i_2 = 1, i_2 = N_2 - 1$ da esa $\frac{1}{h_2^2}\mu$ ga farqlanadi.

$\mu_k(jh_2)$ va λ_k–mos ravishda ushbu masalaning *k* nomerli xos funksiyalari va xos qiymatlari bo`lsin

$$\begin{aligned} &\Lambda_2\mu_k + \lambda_k\mu_k = 0, h_2 \le x_2 \le l_2 - h_2, \\ &\mu_k(0) = \mu_k(l_2) = 0. \end{aligned} \tag{1.14}$$

Ma'lumki, ular uchun quyidagi formulalar o`rinli

$$\mu_k(jh_2) = \sqrt{\frac{2}{l_2}}\sin\frac{k\pi j}{N_2}, \lambda_k = \frac{4}{h_2^2}\sin^2\frac{k\pi h_2}{2l_2}$$
$$k = 1, 2, \ldots, N_2 - 1.$$

Ayirmali masala (1.13) ning yechimini ushbu yig`indi ko`rinishida izlaymiz

$$\begin{aligned} &y_{ij} = \sum_{k=1}^{N_2-1} c_k(ih_1)\mu_k(jh_2) \\ &i = 1, 2, \ldots, N_1 - 1,\ j = 1, 2, \ldots, N_2 - 1, \end{aligned} \tag{1.15}$$

bu yerda c_k Furye koeffisienti bo`lib, u $x_1 = ih_1$ ga bog`liq bo`ladi.

Ifoda (1.15) ni tenglama (1.13) ga qo`yib

$$\begin{aligned} \Lambda y = \Lambda_1 y + \Lambda_2 y = \sum_{k=1}^{N_2-1} [\mu_k(jh_2)\Lambda_1 c_k(ih_1) + c_k(ih_1)\Lambda_2 \mu_k(jh_2)] = \\ = \sum_{k=1}^{N_2-1} \varphi_k(ih_1)\mu_k(jh_2), \end{aligned} \tag{1.16}$$

tenglamaga ega bo`lamiz, bu yerda $\varphi_k(ih_1) - \varphi(x)$ funksiyaning Furye koeffisienti:

$$\varphi_k(ih_1) = \sum_{j=1}^{N_2-1} \varphi(ih_1, jh_2)\mu_k(jh_2)h_2.$$

Formula (1.14) ni, xuddi shuningdek μ_k funksiyalarning ortoganalligini e'tiborga olsak, tenglama (1.16) dan koeffisientlar c_k ni aniqlash uchun quyidagi masalaga kelamiz

$$\begin{aligned} &\Lambda_1 c_k - \lambda_k c_k = -\varphi_k,\ h_1 \le x_1 \le l_1 - h_1, \\ &c_k(0) = c_k(l_1) = 0, \end{aligned} \tag{1.17}$$

bu yerda $k = 1,2,...,N_2 - 1$.

Bundan ko`rinadiki, $c_k(ih_1)$ koeffisient $x_1 = ih_1$ ning funksiyasi sifatida, har bir $k$ uchun progonka metodi bilan topiladi. Hammasi bo`lib $N_2 - 1$ marta progonka metodi algoritmi qo`llaniladi.

So`ngra $c_k(ih_1)$ koeffisientlarni bilgan holda formula (1.15) bo`yicha masala (1.13) ning yechimi topiladi. Furye koeffisientlari φ_k ni hisoblash va yechimlar y_{ij} ni topish aynan bir xil formulalar bo`yicha olib boriladi. Bu yerda yig`indini hisoblash umumiy bo`lib hisoblanadi

$$\vartheta_j = \sum_{k=1}^{N-1} z_k \sin\frac{k\pi j}{N},\ j = 1,2,...,N-1.$$

Buning uchun Furyening tez almashtirish maxsus algoritmidan foydalaniladi, u ko`rsatilgan yig`indilarni $q = 5N\log_2 N$ arifmetik amal sarflab hisoblash imkonini beradi $(N = 2^n)$, yig`indini odatdagi qo`shishda $O(N^2)$ arifmetik amal sarflanadi. Ayirmali Dirixle masalasi (1.2) ni yechishga $O(N_1 N_2 \log_2 N_2$ arifmetik amallar sarflanadi. Dekompozisiya metodini o`zgaruvchilarni ajratish metodi bilan birgalikda qo`llash mumkin.

4-mavzu. Oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar.

Reja

4.1. Oshkormas sxemalarning turg‘unligi.
4.2. Absolyut va shartli turg‘un ayirmali sxemalar.
4.3. Simmetrik t-giperbolik sistemalar uchun Laks, Godunov, Rusanov ayirmali sxemalari va ularning turg‘unligi.

Ayirmali approksimatsiya usulida differensial tenglama va qo’shimcha shartlarga kiruvchi har bir hosila faqatgina shablonni tashkil qiluvchi tugun nuqtalarda ifodalangan ayirmali ifodalar bilan almashtiriladi. Ushbu usul juda sodda bo’lganligi bois qo’shimcha izohlarga hojat yo’q.

To’g’ri to’rtburchakli to’rda uzluksiz (va yetarlicha silliq) koeffitsiyentli differensial tenglamalar uchun ayirmali approksimatsiya usuli birinchi va ikkinchi tartibli approksimatsiyaga ega bo’lgan ayirmali sxemalarni oson tuzish imkonini beradi. Ammo, ushbu usulni murakkabroq bo’lgan hollar uchun qo’llash ancha mushkul yoki qo’llashni imkoni bo’lmaydi. Masalan, uzilishli koeffisiyentga ega bo’lgan differensial tenglamalar uchun, hisoblash sohasi to’g’ri to’rtburchak bo’lmasa, yuqori tartibli differensial tenglamalar uchun notekis to’rda va boshqa hollarda.

Misol. Quyidagi differensial masala uchun ayirmali sxema tuzish talab etilsin:

$$\frac{\partial u}{\partial t} + c\frac{\partial u}{\partial x} = f(x,t), \quad 0 < x \le 1, \qquad (2.1)$$

